جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil
12-aprel
№ 16(16)

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

FALAKIYOT

O‘ZBEKISTONDA ASTRONOMIYA:



Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi”, degan so‘zlari barchamizni bu harakatga astoydil yondoshishga da’vat etadi.

E’tiboringizga havola etilayotgan maqolada buyuk uyg‘onishlar davri Renessanslarning ro‘y berishida ma’rifatli hukmdor-metsenatlarning qadimda va bugungi kundagi roliga astronomiya fani misolida to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Astronomiya boshqa ilm-fan sohalari kabi o‘zining taraqqiyotida gurkirab rivojlanish hamda turg‘unlik davrlarini boshidan kechirgan. Samo sirlarini o‘rganishga qaratilgan fanning navbatdagi yuksalish davri milodiy IX asrda Bag‘dodda boshlangan. Mashhur “Ming bir kecha” ertaklarining qahramoni Horun ar-Rashid o‘g‘li Abdullohni Xurosonga hokim etib tayinlaydi. Tabiatan ilm-fan metsenati (homiysi) bo‘lgan Abdulloh viloyatning poytaxti Marv shahrida zamonasining iste’dodli olimlarini to‘plab, ilmiy markaz tashkil etgan. Bular orasida Muhammad Xorazmiy va Ahmad Farg‘oniylar ham bo‘lgan.

U 809-yili Bag‘dodga qaytib, taxtga xalifa al-Ma’mun nomi bilan o‘tiradi. Al-Ma’mun Bayt ul-Hikma (“Donishmandlar uyi”)ni tuzib ilm-fanni, ayniqsa, astronomiyani rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan. Bayt ul-Hikmaning dong‘ini dunyoga yoyishda eng salmoqli rolni aynan bizning vatandoshlarimiz Xorazmiy va Farg‘oniylar o‘ynagan.

Lekin biz buyuk bobokalonlarimizning ijodi haqida gapirganimizda, ilmiy merosini o‘rganishga qaratilgan anjumanlar o‘tkazganimizda negadir ijodiy ishlarini amalga oshirishda ularga sharoit yaratib bergan, zamonaning dolzarb masalalarini yechishni vazifa qilib qo‘ygan va bu jarayonni moliyaviy ta’minlagan metsenat-hukmdorlarni umuman esga olmaymiz. Masalan, 827-yili Sanjar cho‘lida Yer meridianining bir gradusini o‘lchash orqali sayyoramizning o‘lchamlarini aniqlash masalasi astronomlar oldiga shaxsan xalifa al Ma’mun tomonidan qo‘yilgan. Chunki karvon va dengiz yo‘llaridan yurib mamlakat iqtisodiyotida o‘ta muhim bo‘lgan savdo-sotiq ishlarini yo‘lga qo‘yish uchun Yerning o‘lchamlarini, turli o‘lkalar va shaharlar orasidagi masofalarni aniq bilish taqozo etilardi.

(Davomi 2-sahifada).

FAN RAVNAQI

MATEMATIKA — HAQIQAT DEMAK!



O‘tkir ROZIQOV,
akademik

“Matematika fanining tamal toshini al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy kabi ulug‘ bobolarimiz qo‘ygan”, – degan edi Prezidentimiz V.I.Romanovskiy nomidagi matematika institutiga tashrif buyurib, uning faoliyati bilan tanishganida.

Mamlakatimizda ilm-fan, xususan, matematika rivojiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Buning natijasi turli sohalarda yangi texnologiyalar tatbiq etilishi, o‘quvchi va talabalarning xalqaro fan olimpiadalaridagi yutuqlari, yetuk olimlarimizning xorijdagi ilmiy doiralarda obro‘-e’tibori oshib borayotgani bilan ham izohlanadi.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti direktor o‘rinbosari, Gibbs o‘lchovlari nazariyasiga salmoqli hissa qo‘shgan va matematik biologiyada o‘z nazariyasini yaratgan ulkan olim, akademik O‘tkir ROZIQOV bilan suhbatimiz shu mavzuda bo‘ldi.

– O‘tkir aka, Prezidentimizning 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Matematika instituti Fanlar akademiyasi tarkibida qayta tashkil etildi. O‘tgan yillar davomida institut tomonidan qanday muhim ishlar amalga oshirildi?

– Prezidentimizning 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari bizga dasturilamal bo‘lib xizmat qildi. Bu qarorlar ijrosida ilm-fan ahliga katta e’tiborni his qildik.

Haqiqattan ham 2017-yildan boshlab matematika fani va ta’limini yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratila boshlandi.

(Davomi 3-sahifada).

TARAQQIYOT

“RAQAMLI O‘ZBEKISTON” qanday amalga oshiriladi?

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga jadal kirib boryapti. Mamlakatimizda raqamlashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2019 yil 20 noyabrda dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki zamonaviy majmuasi qurilishiga tamal toshi qo‘ygani, sohada yetuk mutaxassislar tayyorlash uchun zamonaviy sharoitlar yaratilayotgani ham shular jumlasidandir.

(Davomi 3-sahifada).

TAASSUROT

“MEN SURONLI HAYOTIMDAN ROZIMAN, ROZI...”

“Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo‘lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur”

Sh.M.MIRZIYOYEV



Davlatimiz Rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 1-mart kuni Urganchdagi Jaloliddin Manguberdi nomli harbiy-akademik litseyga tashrifi chog‘ida shu kabi ta’lim maskanlarining ahamiyati va mas’uliyati haqida alohida to‘xtalib, eng sharafli kasb egalari bo‘lmish Vatan himoyachilari, avvalo, ma’nan va jismonan barkamol bo‘lishi, yetuk tafakkur sohibi bo‘lmog‘i zarurligini ta’kidlagan edi. Bu talab, o‘z navbatida, islohotlar natijasida yangi qiyofa kasb etayotgan harbiy o‘quv muassasalari murabbiylari va mas’ullari zimmasiga zalvorli vazifalarni yuklaydi. Mamlakat daxlsizligiga javobgar shaxs bo‘lib ulg‘ayajak o‘quvchilarga barcha jabhada, hatto aniq fanlar mag‘zida ham Vatanga sadoqat, mehr-u muhabbat tuyg‘ularini singdirish kun tartibida turibdi. Shunga ko‘ra, taalluqli maktablar darslik va qo‘llanmalargagina suyanib qolmasdan, balki yurtimizning ziyolilari, ijodkor-u san’atkorlari, taniqli vakillari ham yosh harbiylar bilan muntazam uchrashib, vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantiradigan hayotiy hikoyalari, ijod namunalari vositasida noan’anaviy saboqlarni yo‘lga qo‘ymoqda.

Bu yil Farg‘ona shahridagi “Temurbeklar maktabi”da Sohibqiron Amir Temur tavalludi kuni bir guruh adabiyot va san’at vakillari, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a’zolari hamda generallar, ofitserlar, harbiy xizmatchilar ishtirokida nishonlandi.

“Sovet davrida Farg‘ona shahrining Frunze (!) massivida Suvorov (!) nomli harbiy maktab bo‘lardi. Bu muassasada asosan boshqa millat vakillari o‘qir, ularning aksariyati tirik yetim, tarbiyasi og‘ir bolalar edi. Shu ko‘chadan o‘tib qolsangiz, doim dag‘dag‘a, shovqin-suron aralash yig‘i tovushlari ko‘ngilni g‘ash qilardi. Ba’zan yuz-ko‘zi ko‘kargan o‘smirlar panjara oralab “Дяденька, дай закурить, дай хлеба...” deb yolvorardi. Bu maktab aslida ta’lim maskani emas, jazo o‘tash koloniyasini eslatardi”, deydi Sharqiy harbiy okrug qo‘mondoni o‘rinbosari, polkovnik Shuhrat Abdullayev.

“Temurbeklar maktabi”ning bugungi qiyofasi bu sohada olib borilayotgan ulkan o‘zgarishlarning ko‘zgusi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Maskan sharafli nomiga munosib ko‘rinish kasb etib, zamonaviy texnologiyalar ta’minoti barobarida o‘z tarix muzeyi, kutubxonasi, sport zali, mashq maydoni va muhtasham tadbirlar zaliga ega.



Tadbir Farg‘ona garnizoni harbiy orkestri tomonidan ijro etilgan Davlat madhiyasi bilan boshlanib, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyevning harbiylar bilan uchrashuvlariga oid videorolik namoyishi bilan davom etdi. Shundan so‘ng mudofaa vaziri o‘rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev so‘z olib, “Armiya bilan xalq – bir tan-u bir jon” shiori bugun hayotimizda to‘laqonli o‘z aksini topayotganini ushbu tadbir ham tasdiqlayotganini e’tirof qildi. O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi To‘lqin Hayit, Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari Minhojiddin Mirzo, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, kinorejissyor Hilol Nasimovlarning chiqishlari maktab o‘quvchilari va murabbiylari tomonidan qizg‘in kutib olindi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda Yozuvchilar uyushmasi tomonidan maktab kutubxonasiga 600 dona badiiy kitob topshirildi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimlari, shoirlar Zulfiya Mo‘minova, Bobur Bobomurod va Farog‘at Xudoyqulovalar ona Vatanni madh etuvchi she’rlaridan namunalar o‘qib, muxlislarni qiziqtirgan savollarga javob berishdi.

Badiiy qismda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Mehriddin Rahmatov ijro etgan culton Jaloliddin monologi farg‘onalik san’atkorlar qo‘shiqlariga ulanib ketdi.

Uchrashuv yakunida maktab jamoasi vakillari mehmonlarga tashrif uchun minnatdorlik bildirib, bunday tadbirlar tez-tez o‘tkazib turilishi nafaqat o‘quvchilarga, o‘qituvchilarga ham ko‘tarinki ruh hamda shijoat bag‘ishlashini alohida qayd etishdi.

Tadbir yakunlanib, poytaxtga qaytarkanmiz, kamol topayotgan yosh harbiylarning aql-u zakovati, ustozlarning fidoyiligidan biz ham ilhomlanib, el-u yurt osoyishtaligi yo‘lida xolis xizmatimizni sidqidildan davom ettirishga, davrga hamnafas ijodiy izlanishga qaror berdik.

Qamchiq dovoniga chiqarkanmiz, avtoulovdagi hamrohlar zahmatkash san’atkor Tohir Saidovdan Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasidagi Amir Temur monologini yana bir bor o‘qib berishini so‘rashdi.

“Farzandlarga,
Nabiralarga...
Garchi qolib ketayotir qancha niyatim,
Men suronli hayotimdan roziman, rozi...
Buyuk davlat barpo etdim,
Tangriga shukr,
Qo‘riqlangiz,
uni Sizga qoldirmoqdaman!”

Iqbol MIRZO

O‘ZBEKISTONDA ASTRONOMIYA:

RENESSANSDAN RENESSANSGACHA

Boshlanishi 1-sahifada.

Uning buyrug‘i bilan Bag‘dodda Shamossiya, Damashq yaqinida esa Kasiyun astronomiya rasadxonalari barpo etilgan. Beixtiyor Prezidentimiz ko‘rsatmasi bilan Zomindagi Sufa yassitog‘ida barpo etilayotgan Radioobservatoriya va Maydanak tog‘idagi optik observatoriya xayolimizga keladi.

Tarixiy manbalarda muhim amaliy ahamiyat kasb etgan o‘lchashlarda xalifa al-Ma’mun ham ishtirok etib, bugungi kun tili bilan aytganda natijalarni davlat protokollariga kiritib, muhrlatgan. Balki shuning uchun ham eng muhim ilmiy natijalar qandaydir daftarlarga yozilib yo‘qolib ketmasdan keyingi avlodlarga yetib kelgandir.

Hozirda bironta ilmiy natija o‘zining aniqlik darajasi ustuvorligini bir necha yil davomida saqlab qolsa katta yutuq hisoblanadi. O‘sha, 827-yili Sanjar cho‘lida Ahmad Farg‘oniy ishtirokidagi Yer meridiani o‘lchovi aniqligidan sakkiz asr davomida bironbir kishi o‘ta olmagan. Bu davr bekorga Birinchi Renessans davri deb atalmagan axir.

Birinchi Renessansning ikkinchi bosqichi ikki asr o‘tib asosan Xorazmda faoliyat ko‘rsatgan Ma’mun akademiyasi bilan bog‘liq. 2023-yili Abu Rayhon Beruniyning 1050 yilligi YUNESKO shafeligida keng nishonlandi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan anjumanlarda ham Beruniyning homiylari, unga sharoit yaratib bergan hukmdorlar umuman tilga olinmadi. Vaholanki, Beruniy o‘z hayotida (ayrim noxush davrlarni hisobga olmaganda) doim hukmdorlar panohida ijod qilgan. U 1004-1017-yillarda ilmiy faoliyat olib borgan dargoh bekorga Xorazm Ma’mun akademiyasi deyilmagan.

Abu Rayhon Beruniy ijodining eng samarali yillari Mahmud G‘aznaviy va uning vorislari davriga to‘g‘ri keladi. Olimning ta’kidlashicha, u ayniqsa, Mahmudning o‘g‘li Ma’suddan alohida izzat-hurmat ko‘rgan. Beruniy o‘zining astronomiyaga bag‘ishlangan shoh asarini unga bag‘ishlab “Qonuni Ma’sudiy” deb nomlagan va shu bilan hukmdorning nomini abadiylashtirgan. Hindistonning mashhur davlat arbobi Javaharla’l Neru Beruniyning “Hindiston” asari uning vataniga bag‘ishlangan eng buyuk tadqiqot ekanligini qayd etib o‘tgan. Agarda Mahmud G‘aznaviy Beruniyni Hindiston yurishiga olib bormaganida va unga bir necha yil davomida xotirjam ishlashga sharoit yaratib bermaganida “Hindiston” asari qanday yozilardi?


Neru yana bir buyuk bobokalonimiz Mirzo Bobur va uning nabirasi Akbarshohning mamlakat rivojidagi xizmatlarini alohida ta’kidlab o‘tgan. Yana shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, boburiy sulton Muhammadshoh topshirig‘i asosida g‘azna mablag‘lari hisobidan Mirzo Ulug‘bekning Samarqanddagi rasadxonasi tuzilishi andozasida Dehli, Banoras va Udaypur shaharlarida observatoriyalar barpo etilgan. Bu tadqiqot markazlarida olib borilgan kuzatishlar asosida tuzilgan zijlar hind xalqiga asrlar davomida xizmat qilib kelgan. Zij, aslida, bir taqvimdan boshqasiga tarixiy sanalarni o‘tkazish, masjidlar qurilganda qibla tomonini belgilash, aholi punktlarining geografik koordinatlarini aniqlash, Quyosh va Oy tutilish vaqtlarini bashorat qilish va yana ko‘plab amaliy masalalarni yechishdagi ma’lumotnoma bo‘lgan.

Ikkinchi Renessansning beshigi bo‘lgan yurtimizdagi buyuk uyg‘onish davri Temuriylar hukmronlik qilgan yillarga to‘g‘ri keladi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta’biri bilan aytganda: “Bu – jahon ilm-fanida o‘z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir!”

Mirzo Ulug‘bek ilmiy maktabining faoliyati Samarqandni jahon astronomiya markaziga aylantirdi. Uning observatoriyasida original kuzatishlar natijasida tuzilgan yulduzlar jadvali yunon astronomi Gipparx tomonidan miloddan avvalgi II asrda tuzilgan katalogdan, ya’ni o‘n olti asrdan (!) keyin birinchi aniq katalog edi.

Endi Mirzo Ulug‘bek erishgan yuksak ilmiy yutuqlarda uning buyuk bobosi Amir Temurning roliga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Adolat yuzasidan shuni aytib o‘tishimiz kerakki, Amir Temurning harbiy sarkarda va davlat arbobligidan tashqari, uning ilm-fan, arxitektura, amaliy san’at va yana bir qator gumanitar sohalarning rivojidagi roli tarixiy asarlarda keng yoritilgan. U jahonning eng malakali olim-u fuzalolari, san’atkorlari, me’mor, zargar-u kulollarini, umuman olganda, turli sohalarning eng yetuk mutaxassislarini yig‘ib, yuksak ilmiy-ijodiy muhitga asos solganiga e’tiboringizni jalb etmoqchimiz. Mirzo Ulug‘bek shu muhitda yashab, o‘zi ham Sohibqiron g‘aznasida to‘plangan boyliklar hisobidan madrasalar, astronomiya observatoriyasi qurgan va yana ko‘plab boshqa obodonlashtirish ishlarini amalga oshirgan.





Ko‘pchilikning e’tiboridan tashqarida qolgan tag‘in bir gap bor. Mirzo Ulug‘bek tuzgan 1018 yulduzning jadvali XVII asrning o‘rtalarida ilk bor Yevropada e’lon qilinganida uni hali hech kim tanimas, Amir Temur esa ko‘hna qit’ani Boyazid Yildirimdan xalos qilgan sarkarda sifatida mashhur edi. Shunda noshirlar bu holatdan foydalanib, Mirzo Ulug‘bekning asarini “Buyuk Tamerlanning nabirasi Ulug‘bekning astronomik jadvallari” sarlavhasi bilan chop etishgan. Tarixda ko‘plab shaxslarning nomlari haqoratomuz laqablardan kelib chiqqan bo‘lsa-da, keyinchalik asl ma’nosini yo‘qotib tarixiy shaxsning ismiga aylangan. Xuddi shunday holat Amir Temurning “Temur lang” (“Oqsoq Temur”) laqabidan kelib chiqib, keyinchalik bu laqabning ma’nosi unutilib, Yevropada “Tamerlan”ga aylangan. Buning isboti sifatida uning ismiga “Buyuk” epiteti qo‘shilganini aytib o‘tishimiz mumkin. “Tamerlan” bugunda Amir Temurning dunyoda qabul qilingan ismi. Biz buyuk bobokalonimizni Amir Temur deb atayveramiz, lekin boshqa xalqlar uni Tamerlan deb atashsa, buni haqorat deb qabul qilmasligimiz kerak.

Mirzo Ulug‘bek jadvalining Oksfordda 1665-yilda Tomas Xayd tomonidan chop etilgan nashrining muqovasi. Muqovada: “Qo‘zg‘almas yulduzlarning Buyuk Tamerlanning nabirasi Ulug‘bek kuzatishlari asosida tuzilgan jadvali” deyilgan.

Mirzo Ulug‘bek Amir Temurning eng sevimli nabirasi bo‘lgan. O‘z navbatida Ulug‘bekning ham buyuk bobosiga mehri juda kuchli bo‘lgan. U otasi Shohrux Mirzo vafotidan keyin atigi ikki yil davomidagina o‘z nomidan tangalar zarb etgan. Shuning uchun Mirzo Ulug‘bek zarb etgan tangalar numizmatikada o‘ta noyob topilma hisoblanadi. O‘zbekiston tarixi muzeyi arxivida Mirzo Ulug‘bek zarb etgan bir juft kumush tanga saqlanadi. Tangalarda quyidagi yozuv bitilgan: “Temur ko‘ragon himmatidan Ulug‘bek ko‘ragon so‘zim”. Undan boshqa bironta ham temuriy hukmdor zarb etgan tangalarida Amir Temurning nomini keltirmagan. E’tibor bering, bu original yozuvda “amir” va “mirzo” qo‘shimchasi yo‘q. Bu dalildan ulug‘ adib Maqsud Shayxzoda mohirona foydalangan. “Mirzo Ulug‘bek” dramasi va “Ulug‘bek yulduzi” kinofilmida Shukur Burxonovning jarangdor ovozi bilan bu xitobni ko‘p eshitganmiz.

Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasida Prezidentimiz mamlakatimizda tizimli ravishda qator islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. So‘nggi yetti-sakkiz yil davomida ilm ahlining hayotida keskin o‘zgarishlar ro‘y berdi. Eng avvalo, olimlarning ish haqi to‘rt barobar oshirildi. Natijada jamiyatda ilm ahlining mavqei ko‘tarildi, iqtidorli yoshlar ilm-fan sohasiga qayta boshlashdi. Ularning jahon yetakchi markazlarida qisqa va uzoq muddatli malaka oshirish harajatlari davlat hisobidan qoplab berilmoqda. Ilmiy laboratoriyalar zaruriy asbob-uskunalar bilan jihozlanib, olimlarning yashash sharoitlariga ham katta e’tibor berila boshlandi. Birgina Fanlar akademiyasi tizimida yosh tadqiqotchilarga imtiyozli shartlar asosida 150 ga yaqin xonadonlar ajratildi. Oilali doktorantlarga Prezident sovg‘asi sifatida 25 ta xonadon bepul berildi.

Amalga oshirilgan choratadbirlar natijasida fanimizning salohiyati sezilarli darajada oshdi va olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar yangi sifat darajasiga ko‘tarildi.

Ta’lim tizimida ham maktabdan boshlab oliy o‘quv yurtlarigacha samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezident maktablarida tahsil olgan o‘quvchilar kelgusida mamlakatimizning turli sohalarida yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanishiga katta umid bilan qaralmoqda. Biz astronomlar Prezident maktablarining birinchisi Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab bo‘lganini alohida mamnuniyat bilan qabul qilamiz. Kuni kecha maktab ta’limini rivojlantirish va sifatini oshirishga oid rejalar taqdimoti bilan tanishish paytida Prezidentimiz aynan shu maktabda Myunxen texnika universiteti bilan hamkorlikda, tajriba tariqasida, muhandislik dasturlarini joriy qilish taklifini ma’qul ladi. O‘quvchilar uchun amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish maqsadida “Astronomiya va aeronavtika” bog‘ini barpo etish ham rejalashtirilgan. Umid qilamizki, bu masalani hal qilishda Myunxen texnika universiteti mutaxassislarining ko‘magi ayni muddao bo‘ladi. Bu choralar mamlakatimiz Rahbarining Mirzo Ulug‘bekka va astronomiya yo‘nalishiga bo‘lgan alohida e’tiboridan dalolat beradi.


Yana bir quvonchli holat uzoq yillardan beri qurilishi to‘xtab qolgan Zomin Sufa yassitog‘idagi bosh antennaning diametri 70 metrli radioteleskopni barpo etish ishlarining jadallashganidir. Hozirda Rossiya Fanlar akademiyasi bilan birgalikda mamlakatlar rahbarlarining bu boradagi kelishuvlarini amalga oshirish ustida ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, o‘zining astroiqlimi (osmon jismlarini kuzatish sharoitlari) bo‘yicha jahonda yetakchilardan biri hisoblangan Maydanak astronomiya observatoriyasining ham infratuzilmasini turizmni rivojlantirish orqali jahon talablari darajasiga olib chiqish yo‘lidagi urinishlar diqqatga sazovor. Lekin bu ishlarni puxta o‘ylab amalga oshirish zarur. Aks holda turistik zonalar barpo etamiz, deb Maydanak tog‘ining noyob astroiqlimiga putur yetkazib, jahon ilmiy markazlarining Maydanak observatoriyasiga bo‘lgan qiziqishini puchga chiqarib qo‘yishimiz mumkin.

Maydanak astronomiya rasadxonasi o‘zining astroiqlimi (osmon jismlarini sifatli kuzatish) bo‘yicha jahonning eng nufuzli observatoriyalari bilan raqobatlasha oladi. Shuning uchun bu observatoriya bizning milliy boyligimiz deb qaralishi kerak.

Maqolamiz yakunida yana bir muhim gapni aytib o‘tmoqchimiz. Bugun tabiiy fanlar sohasida olamshumul natijalarni qo‘lga kiritish uchun noyob asbob-uskunalarga ega bo‘lishimiz zarur. Bu borada ham Rahbarimiz tomonidan olimlarimizga imkoniyatlar yaratilib berilmoqda. Lekin eng zamonaviy asbob-uskunalar katta mablag‘ talab etadi. Astronomiya fani ham bundan mustasno emas. Zamonaviy teleskoplar va uskunalar yuzlab million AQSh dollari turadi. Boshqa fanlardan farqli o‘laroq, astronomiya sohasining muhim tomoni shundaki, har qanday noyob uskuna yasalganidan keyin uni o‘rnatishga maqbul joy topish kerak bo‘ladi. Bu jihatdan O‘zbekistonda Alloh taolo bizga in’om etgan Sufa va Maydanak kabi yuksak astroiqlimga ega maskanlar bor. Shuning uchun bizning o‘lkamizga jahonning nufuzli markazlari o‘z teleskoplarini o‘rnatishdan manfaatdor. Bunday imkoniyatdan biz oqilona foydalanib qolishimiz kerak. Shunda Uchinchi Renessansga va buyuk bobokalonlarimizning merosiga munosib olamshumul ilmiy natijalarga erishishimiz mumkin.

Shuhrat EGAMBERDIYEV,
O‘zR FA Astronomiya instituti direktori,
O‘zbekiston Respublikasi Fan arbobi, akademik

BU KITOBLARNI QACHON O‘QIYMIZ?



OCHILMAGAN QO‘RIQ

Jadid ma’rifatparvarlari ilmiy-madaniy merosi keng qamrovli bo‘lib, ularning matbuotdagi maqolalari, hujjatlari, pyesalari nisbatan o‘rganilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan. Biroq ularning qo‘lyozma asarlari va toshbosma nashrlari hozirga qadar yetarlicha tadqiq qilinmagan. Bu kabi asarlar O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Adabiyot muzeyi, O‘zbekiston Milliy arxivi, Milliy kutubxona, “Turon” kutubxonasi va boshqa bir qator muassasalarning nodir fondlarida saqlanmoqda.

Ushbu merosning katta qismi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida mavjud bo‘lib, ularni ilmiy muomalaga kiritish davr talabi hisoblanadi. Jadidlar asarlari bizgacha asosan qo‘lyozma yoki toshbosma shaklida yetib kelgan. Institut xazinasida 26 ming jildga yaqin ana shunday qo‘lyozmalar saqlanadi. Asarlarning asl nusxasi yoki jadid ma’rifatparvarlariga tegishli qo‘lyozmalar juda kam saqlanib qolgan. Chunki ular qatag‘onga uchraganida asarlari ham yo‘q qilingan.

Jadidlar o‘z tashabbusi bilan Yevropa mamlakatlaridan Turkistonga olib kelgan bosmaxonalarda kitoblar, gazeta-jurnallar nashr qilishgan. Institut fondida qariyb 40 ming jild toshbosma va nashr etilgan kitoblar mavjud. Ular orasida jadidlarning tarixiy, adabiy, ilmiy, diniy mazmunga ega bo‘lgan bosma asarlari, darsliklar, to‘plamlar mavjud.

Jadidlik g‘oyasi asoschilaridan Abu Nasr Kursaviy, Shahobiddin Marjoniy va uning shogirdi Ismoil G‘aspralining kitoblari ham mazkur qo‘lyozmalar xazinasida saqlanmoqda. Xususan, Ismoil G‘aspralining 1900-yilda nashr etilgan “Turkiston ulamosi” asarida o‘lkamizda yashagan yuzdan ortiq din-u diyonat sohasi vakillari haqida ma’lumotlar jamlangan.

XIX asr oxiri XX asrning boshlarida jadidlar o‘zlari ochgan yangi usul maktabi o‘quvchilari uchun darsliklar yozgan. Jumladan, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni”, “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” kabi darsliklari ham institut fondida saqlanmoqda.

Shuningdek, Abdulhamid Cho‘lpon va Ashurali Zohiriy tomonidan o‘rta maktabning yuqori sinflari uchun tayyorlangan “Adabiyot parchalari” nomli xrestomatiya 1926-yilda chop etilgan. Ushbu kitobda Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, G‘ayratiy, Shokir Sulaymon va Ashurali Zohiriyning asarlaridan parchalar keltirilgan. Munavvar qori Abdurashidxonovning “Yer yuzi”, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (maktab o‘quvchilari uchun geografiyaga oid darsliklar), “Tarixi islom”, Abdulla Avloniyning boshlang‘ich maktablarning 3-4-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” darsliklari ham saqlanmoqda.

Institut fondida jadid shoirlarning she’rlari to‘plangan bosma nashrlar ham mavjud. Jumladan, Abdulla Avloniy tomonidan 1916-yilda mardikorlar tomonidan aytilib, kuyga solingan qo‘shiqlar matni jamlangan “Mardikorlar ashulasi” asari ham saqlanadi. Shu bilan birga, bu yerda Abdulloh Badriddinovning “Juvonmarg”, “Mazluma xotin”, “Ko‘knori”, Abdurauf Shahidiyning “Mahramlar”, “Eski va yangi maktab”, G‘ozi Yunusning “Savodsizliq qanday yomon”, Usmon Xo‘janing “Boy birlan kambag‘al. Buxoro turmushi”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Burung‘i saylovlar” kabi o‘z davrining ijtimoiy-ma’naviy hayotini yorituvchi dramalari bilan ham tanishish mumkin.

Jadidlar tomonidan o‘zbek tili va yozuvi masalasiga oid ko‘pgina kitoblar yozilgan. Xazinada 21022-inventar raqami ostida saqlanayotgan Munavvar qori Abdurashidxonovning “O‘zbekcha til saboqlig‘i” kitobida ona tilimiz grammatikasiga oid 154 ta qoida keltirilgan. Qayum Ramazonning 1919-yilda yozilgan “(Imlo) bitim yo‘llari” kitobida imlo qoidalarini isloh qilish haqida so‘z boradi. Piskentlik Abdulla Alaviyning “O‘zbek yangi alifbosini tuzishda asoslar” nomli asarida o‘zbek xalqiga xos shevalar, lahjalar, O‘rxun bitiklari hamda “Devon-u lug‘atit turk” asaridagi so‘zlar qiyosiy tahlil qilingan.

Jadidlik harakati namoyandasi Sarikboy Oqayevning “Terma kitob, ya’ni xrestomatiya” asarida jami 77 ta hayotiy hikoyalar va tarixiy voqealar jamlangan. O‘z navbatida, Mulla Mirzo Xayrulloh Xo‘qandiyning “Madxali fanni nujum” hamda “Fanni nujumi turkiy” (astronomiya), Qozi Is’hoqxon To‘raqo‘rg‘oniyning “Jomi’ ul-xutut” (yozuv turlari), Mulla Hoshimjon mulla Azizjon sahhof o‘g‘lining “Jumboqlar to‘plami”, Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘lining “Otalar so‘zi” (maqollar), “Qifat ul-bashar” (psixologiyaga oid), Mo‘minjon Muhammadjonning “Nasoih al-atfol” (pand-nasihatlarga oid) kabi asarlari ham o‘z tadqiqotchilarini kutib turibdi.

Sharqshunoslik instituti xazinasida jadid bobolarimiz tomonidan arab, fors, rus va boshqa xorijiy tillardan tarjima qilingan asarlar ham talaygina. Xususan, Abdurauf Fitrat buxorolik Hoji Muin ibn Shukrulloh Samarqandiyning (1883-1942) fors tilida yozilgan “Munozara” asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Buxoro madrasasi mudarrisining ajnabiy shaxs bilan savol-javobi tarzida bitilgan mazkur asarda ilg‘or yangiliklarga intilish, ilm-ma’rifatga erishish kabi g‘oyalar ilgari suriladi. Abdurauf Shohidiyning 1911-yilda bosilgan “Bozori sha’ab” asarida bozor, choyxona va mehmonxonalardagi holatlarni bayon qilish orqali o‘sha davrning ijtimoiy-axloqiy manzaralari ochib berilgan. Sharqshunoslik instituti xazinasida taniqli jadid G‘ozi Yunusning 1918-yilda nashr qilingan “Turma xotirasi yoxud haqsizlik kasofati” asari birato‘la uchta – 12832, 14964, 18991-raqamlari ostida saqlanadi.

Yuqorida tilga olingan qo‘lyozma va toshbosma asarlar jadid ma’rifatparvarlarining Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanib qolgan merosining bir qismi hisoblanadi. Kelajakda bu dargohda ularning boshqa asarlari ham kashf etilishi mumkin. Ularni izlab topish, o‘rganish va ilmiy muomalaga kiritish va shu orqali jadidlarning ibratli faoliyati, g‘oya va maqsadlarini yanada kengroq ochib berish yosh tadqiqotchilar, barchamizning eng muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Bahrom ABDUHALIMOV,
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti

MATEMATIKA — HAQIQAT DEMAK!

Boshlanishi 1-sahifada.

Uzluksiz ta’lim tizimida matematika ilm-fani va ta’limini rivojlantirish hamda xalqaro standartlarga moslashtirish uchun mavjud muammolarni bartaraf etish tizimi yaratildi. 2020-yildan boshlab respublikamizning har bir tumanida matematika faniga ixtisoslashgan maktablarni bosqichma-bosqich tashkil etish tizimi joriy qilindi. Tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda matematika fani bo‘yicha “uzluksiz ta’lim dasturlari” majmuasi yaratildi. Matematika instituti tarkibida beshta shtat birligidan iborat Matematika ta’limi bo‘yicha o‘quv-uslubiy materiallarni muvofiqlashtirish laboratoriyasi va Institut direktorining yosh matematiklar va yosh olimlar masalalari bo‘yicha direktor o‘rinbosari lavozimi tashkil etildi.

Matematika fani va ta’limini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tuzilib, talabalarning Xalqaro matematika olimpiadasida qatnashishi uchun mablag‘ ajratilmoqda. Ularning xalqaro matematika olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtiroki va iqtidorli talabalarni saralash maqsadida Matematika instituti va O‘zbekiston Milliy universiteti hamkorligida “Mathematical olympiads of Uzbekistan for University Students” nomli onlayn loyiha ochildi. Shuningdek, matematika yo‘nalishida ta’lim olayotgan talaba va tadqiqotchilar uchun akademik T.A.Sarimsoqov nomidagi stipendiya ta’sis etildi. Yosh matematiklarimizdan Jasurbek Karimov, Sobirjon Shoyimardonov va Zafar Boxonov O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasiga sazovor bo‘lishdi.

Bu kabi e’tibor mamlakatimizda matematika fanini yanada rivojlantirish, sohada malakali kadrlarni tarbiyalash imkoniyatini oshirdi. Matematika instituti tomonidan so‘nggi yillarda ilm-fan sohosida salmoqli natijalarga erishildi.

Birinchidan, Statistik fizika va kvant maydoni nazariyasi kuzatiluvchilari fazosini tavsiflash uchun yangi algebraik yondashuv ishlab chiqildi. Statistik mexanika va biologiyadagi nochiziqli dinamik sistemalar nazariyasi rivojlantirildi. Ozod va ikki jinsli populyatsiyalarning vaqt o‘tishi bilan keyingi avlodlarining turg‘un holatlari tasnifi berildi. Bu natijalar populyatsiyalar kelajagini bashorat qilish uchun muhim matematik asos bo‘ladi.

Ikkinchidan, Kasr tartibli differensiallash operatorli parabolo-giperbolik tenglamalar uchun chegaraviy masalalar tadqiq qilindi. Dinamik sistemalarga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini avtomatlashtirishga mo‘ljallangan kompyuter dasturi paketi yaratildi.

Immigratsiyali tarmoqlanuvchi jarayonlarning asimptotik xossalari va bunday jarayonlarda qatnashuvchi zarrachalar umumiy soni uchun limit taqsimotlar o‘rganildi.

Uchinchidan, kompyuter tomografiyasi tasvirlarini qayta tiklash uchun yangi optimal algoritmlar ishlandi. Issiqlik elektrostansiyalaridagi aylanuvchi regenerativ havo qizdirgichlardagi issiqlik almashish jarayonining yangi matematik modeli yaratildi.

Dori-darmon tayyorlashda “struktura-aktivlik” modelini qurish vaqtida tanlanma to‘plamni model qobiliyatini baholashning yangi metodi tadqiq qilindi. Koronavirus bemorlari uchun xavfni baholash dasturi ishlab chiqildi. Bu borada yana ko‘plab misollar keltirish mumkin.


– Matematika instituti yetuk ilmiy xodimlarining xorijdagi hamkasblari bilan hamkorligi haqida to‘xtalib o‘tsangiz.

– Matematika instituti tomonidan dunyoning yetakchi ta’lim muassasalari, xususan, Bonn, Boxum, Berlin, Kembrij, Parij, Seul, Santyago de Kompastela universitetlari va boshqa ilmiy markazlarning olimlari bilan birgalikda qo‘shma ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Institutimiz tashabbusi bilan AQShning Kaliforniya shtati universiteti, Birlashgan Arab Amirliklari universiteti, Malayziyaning MARA texnologiyalar universiteti, Avstraliyaning Malayziyadagi Monash universiteti, Malayziyaning Putra universitetlarida faoliyat yuritayotgan yurtdoshlarimiz bilan hamkorlikda yetakchi professor-o‘qituvchilarning “onlayn” mahorat darslari va seminarlarini o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi.

– Matematika – aniq fan. Demak, ushbu fan ravnaqiga butun dunyo matematiklari qo‘shgan hissalari ham aniq ko‘rinib turadi. Ularning orasida bizning olimlarimizning o‘rnini qanday baholash mumkin?

– O‘zbek matematiklari xalqaro miqyosda e’tirof etilmoqda. Mamlakatimizda fanning bir necha yo‘nalishi bo‘yicha mashhur olimlar hamda ular rahbarligidagi ilmiy maktablar yaratildi. Ularning ilmiy izlanishlari jahon miqyosida tan olindi. O‘zbek matematiklaridan to‘rt nafari Butunjahon fanlar akademiyasi akademigi va olti nafari TWASning yosh olimlar bo‘limi a’zosi bo‘lishdi.

Xorijdagi nufuzli jurnallarda o‘zbek olimlari ilmiy ishlariga chet ellik olimlar tomonidan berilgan taqrizlarda: “mualliflardan biri juda taniqli ekspert”, “bu yo‘nalishda o‘zbek maktabi muhim



o‘rin tutadi”, degan e’tiroflarga tez-tez duch kelamiz. Shuningdek, matematiklarimiz “Springer Nature Top Author” va “Scopus Award” tanlovida “Top researcher in Natural sciences” (Tabiiy fanlar bo‘yicha yil tadqiqotchisi), deb e’tirof etilgan. COMSTECHning “Eng yaxshi ilmiy maqola” xalqaro mukofotini ham qo‘lga kiritgan olimlarimiz bor. Joriy yil 20-fevralda Berlinning “Veyershtrass amaliy tahlil va stoxastika instituti” seminarida ma’ruza qilishimdan oldin menga so‘z bergan professorning “Gibbs o‘lchovlar sohasida taniqli ekspert” deb tanishtirgani o‘zbek olimlarining bugungi kun matematikasidagi o‘rnini ifodalovchi bir misoldir.

– Bugungi kunda IT sohasi ko‘pchilikka ma’lum. Yana “sun’iy intellekt” degan tushuncha paydo bo‘ldi. Shuni soddaroq qilib tushuntirib bersangiz. Bu ham odamlarni dangasa qilib qo‘ymaydimi?

– Dangasalik ba’zilarning fe’l-atvorida bo‘ladi. Unday kishilar ishamallar osonlashgani sababli paydo bo‘lmaydi. Masalan, sonlar ustida amallarni o‘rganish maktabda o‘tiladi, lekin kalkulyator bor, bu amallarni o‘rganish shart emas, deydiganlar dangasadir. Bugungi kunda sun’iy intellekt paydo bo‘lishi ham oldin kalkulyator paydo bo‘lganiga o‘xshash hodisa. Kalkulyator matematikaning boshlang‘ich mavzularini o‘rganishdan voz kechishga olib kelmadi-ku, sun’iy intellekt ham tabiiy intellektning o‘rnini egallashi mumkin emas. Aksincha, inson sun’iy intellekt dasturini takomillashtirish ustida ishlashi uchun o‘z tabiiy intellektiga tayanadi. Sun’iy intellektning paydo bo‘lishi ilm-fan rivojini keskin tezlashtiradi va tabiiy intellektimiz bilan kashfiyotlar qilishda kalkulyator vazifasini bajaradi.

– Matematika instituti xodimlari ayni vaqtda qanday muammolar ustida ish olib bormoqda?

– Institutda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar nazariy ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga amaliy jihatdan ham salmoqlidir. Nazariy ishlarimizda matematikaning zamonaviy abstrakt masalalarini yechish uchun algebra, nochiziqli analiz, differensial tenglamalar, dinamik sistemalar, ehtimollar nazariyasi sohalarini rivojlantiryapmiz. Bu ishlardan ko‘zlangan asosiy maqsad O‘zbekistonda matematika fanini jahon standartlari doirasida saqlashdir. Dunyoda matematika sohasida bo‘layotgan yangiliklarni o‘z vaqtida anglab, ularga munosib hissa qo‘shishimiz shart. Ayniqsa, bu vazifalarni amalga oshirish uchun safimizda yosh matematiklarning ko‘pligi va ularning soni oshib borayotgani madad bo‘lmoqda.

Shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda matematika fani erishgan yutuqlari bilan cheklanib qola olmasligimiz ravshan. Ayniqsa, O‘zbekiston uchun matematikani yanada kuchaytirish zaruriyati juda yuqori. Har bir soha rivojining asosida, albatta, matematika bo‘ladi. Amaliy matematika sohasida, masalan, oxirgi yillarda yurak-qon tomir kasalliklari natijalarini bashorat qiluvchi modellar ishlab chiqilib, ular Kardiologiya markazining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent viloyatidagi filiallari hamda Endokrinologiya markazida amalda joriy etildi. Yangi dori vositalarini yaratish uchun mo‘ljallangan MolekulGen dasturlar to‘plami ishlab chiqildi. Proksimal son suyagining sinishi va asosiy osteoporotik sinishlar ehtimolini individual hisoblash uchun Chatbot yaratildi. Parafreyzer, imlo tekshiruvi, grammatik tahrir, xulosalovchi va nutqni matnga aylantirish kabi xizmatlarni o‘z ichiga olgan muharrirai.com platformasi yaratildi. Sanoat mintaqalarida ekoholatni monitoring qilish va prognozlash uchun dasturiy moduli, neft qatlamlari mavjud hududlarga kislotali ishlov berishning yangi matematik modeli va texnologik ko‘rsatkichlarni hisoblash uslubiyati yaratildi. DNKlar tizimlari xossalari Gibbs o‘lchovlari bilan o‘rganildi, temperaturaning DNKlar Xolliday birikmasiga ta’siri tasnifi berildi, DNK-RNK renaturatsiyasi uchun temperatura shartlari topildi. Hozirgi kunda institut bilan dunyoning yetakchi matematika ilmiy markazlari o‘rtasida hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko‘tarilmoqda, olimlarning tadqiqotlari ko‘lami yanada kengaymoqda, sohaga zamonaviy ilmiy yo‘nalishlar kirib kelmoqda.

– Avvalgi suhbatlaringizdan birida Kriptografiya sababli Ikkinchi jahon urushi axborot xavfsizligini saqlash sohasidagi bitta teorema qo‘llangandan keyin urush muddatidan ikki yil oldin tugagan, degan fikrni aytgandingiz. Bu qanday teorema edi?

– Kriptografiya axborotni kodlab, begonalardan sir saqlash uchun ishlatiladi. Masalan, bankning biror ma’lumotini elektron pochta bilan boshqa bankka yubormoqchi bo‘lgan xodim xakerlar bu ma’lumotni ochishining oldini olish uchun ma’lumotni kodlab yuboradi. Lekin zamonaviy kompyuterlar uncha mukammal o‘ylanmagan kodlarni millionlab kombinatsiya orqali tez ochishi mumkin. Shu sababli zamonaviy kriptografiyaning asosiy masalalaridan biri hatto kompyuter ham qisqa vaqt (aytaylik, kamida bir yil) ichida ochib berolmaydigan kodlar yaratishdir. Bu masala doimo o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ikkinchi jahon urushi paytida K.Shennon tomonidan shunday kodlash taklif qilindiki, bu matematik yangilik yordamida Ikkinchi jahon urushi kutilganidan oldinroq (kamida 2 yil) tugatildi va millionlab odamlarning hayoti, milliardlab dollar asrab qolindi.

– Har bir sohaning peshqadamlari bor. Kelajak ularga yaqqolroq ko‘rinadi. Bizda matematikaning kelajagi qanday bo‘ladi?

– Sun’iy intellekt, dasturlash va boshqa zamonaviy kashfiyotlar matematika fani oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Inson hayotning har qadamida matematikaga tayanadi. Mashhur faylasuf I.Kant aytganidek, “Har bir ilmda qancha ko‘p matematika bo‘lsa, shuncha ko‘p haqiqat bor”. Demak, kundalik turmushingiz qanchalik matematikaga asoslangan bo‘lsa, shunchalik muvaffaqiyat qozonasiz. Aytmoqchimanki, insoniyat shiddat bilan o‘zgarayotgan zamonimizda o‘z kelajagini matematik asoslashi zarur. Davrning chegara bilmas muammolari ko‘payib bormoqda. Masalan, kibertahdid, axborot xavfsizligi, virus tarqalishi xavfi (jumladan, koronavirus) va hokazolar. Bu singari davr muammolarini yechishda axborot texnologiyalari, dasturlash, matematik modellashtirish va kimyo-biologiya kabi sohalarni rivojlantirish juda muhim. Bu sohalarning asosi esa, albatta, matematika! Demak, oldin ham, bugun ham va kelajakda ham insonning hayotida matematikaning o‘rni beqiyosdir.

Humoyun AKBAROV
suhbatlashdi.

“RAQAMLI O‘ZBEKISTON” QANDAY AMALGA OSHIRILADI?



Boshlanishi 1-sahifada.

Ta’bir joiz bo‘lsa, Yangi O‘zbekistonda yangi davr boshlandi. Bu – raqamli texnologiyalar davridir. Aql-tafakkur, intellektual salohiyatni faol ishga solish, dunyoning ilg‘or qismi bilan integratsiyalashuv, o‘zlikni anglash, tomirlarda oqayotgan buyuk ajdodlardan meros genetik salohiyatni Uchinchi Renessans to‘lqinlari aro ro‘yobga chiqarish ezgu niyati bu davr talablari bilan chambarchas bog‘lanib ketadi.

So‘nggi yillarda yer yuzida, jumladan, respublikamizda ham aholi soni keskin darajada o‘sib borishi mehnat bozorida intellektual salohiyat, aql-tafakkur mahsulotlarini tobora oshirib borishni taqozo etmoqda. Bu o‘rinda kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta’minot mahsulotlarini ishlab chiqarish, ular asosida keng turdagi interfaol xizmatlar ko‘rsatishni o‘zida mujassam etgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining ahamiyati beqiyos. Shu tariqa xalq farovonligi yo‘lidagi iqtisodiy islohotlarning samaradorligini yuksaltirish orqali yurt obodligi ta’minlanadi.

Raqamlarga murojaat qilinadigan bo‘lsa, o‘tgan yil yakuniga ko‘ra yurtimizda 32,2 trln. so‘mlik axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari ko‘rsatildi. Bu borada o‘sish sur’ati ancha yuqori. Ushbu sohaning imkoniyatlaridan xabardor bo‘lish uchun zamonaviy ilmlarni bilish, dunyo bo‘ylab oqayotgan boyliklarning asosan qaysi sohalarga tegishli ekanini idrok etish zarur bo‘ladi. O‘tgan yili yurtimizda IT-park rezidentlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 12,8 trln. so‘mni tashkil etib, avvalgi yillarga nisbatan salkam ikki yarim barobarga ko‘paygani, 539,5 mln. AQSH dollariga teng axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari eksporti amalga oshirilgani fikrimiz dalilidir. IT-park rezidentlari tomonidan eksport qilinayotgan xizmatlar hajmi ham salmoqli raqamlarni tashkil etadi. Umuman olganda, raqamli industriya hajmini kengaytirish yo‘nalishida IT-park rezidenti sifatida minglab korxonalarning ro‘yxatdan o‘tishi, ularning aksariyati xorijiy kapital ishtirokidagi korxonlar hisoblanishi ish o‘rinlarni yaratishda katta ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalarning telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha yutuqlari ham oz emas. Xalqaro Internet tarmog‘iga ulanishning umumiy o‘tkazuvchanlik qobiliyati oshib bormoqda. Yurtimizda qo‘shimcha 61 ming kilometr optik-tolali aloqa yo‘nalishlarini qurish orqali ularning umumiy uzunligi 231 ming kilometrga yetkazildi. Raqamli texnologiyalarning oshib borayotgan iqtisodiy ko‘rsatkichlari xalqimizga zamonaviy xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarining tobora keng qamrov kasb etayotganini ham namoyon etadi. Chorak asr burun bu ishlarni hatto tasavvur etish mumkinmidi? Qolaversa, raqamli texnologiyalar o‘z imkoniyatlarini taqdim etayotgan jabhalar shuning o‘zi bilan kifoyalanib qolgani yo‘q. Umuman olganda, unga “kifoya” tushunchasi yot desa to‘g‘riroq bo‘ladi.

O‘tgan yilning oktyabr oyida elektron hukumatni rivojlantirish yo‘nalishida Yagona interfaol davlat xizmatlari portali va uning mobil ilovasining yangi talqini ishga tushirilgan edi. Yil yakuniga kelib, bunday xizmatlar ko‘rsatish bir yarim barobarga oshib, 573 taga, uning mobil ilovasida o‘sishi 166 foizni tashkil etib, 267 taga yetkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida belgilab berilgan ustuvor vazifalar shu tariqa izchil hayotga tatbiq etib borilmoqda. “Raqamli hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali vazirlik va idoralar o‘rtasidagi ma’lumotlar almashinuvi yaxshilanib, servislar soni oshib bormoqda.

Prezident sovrini uchun o‘tkazilayotgan raqamli texnologiyalar yo‘nalishida eng yaxshi startap loyihalar tanlovi tashkil etilayotgani esa sohaga yoshlarning qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda. Raqamli ta’limni rivojlantirish yo‘nalishida Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanida Hindiston bilan hamkorlikda axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan Acharya universiteti, Xorazm viloyatida esa 7-11-sinf o‘quvchilarini ushbu soha bo‘yicha kasbga tayyorlash maqsadida “Muhammad al-Xorazmiy vorislari” loyihasi doirasida 13 ta raqamli texnologiyalar o‘quv markazi va 31 ta umumta’lim maktabida maxsus o‘quv guruhlari tashkil etildi. Ayni kunlarda 1000 nafar yoshlar xalqaro IT mehnat bozoriga tayyorlanmoqda. Iqtisodiyotning turli sohalarini raqamlashtirishda faol ishtirok etayotgan 60 nafar yoshlar “Mirzo Ulug‘bek vorislari” deb nomlangan maxsus tayyorlov kurslarida o‘qitilmoqda. Bu yoshlar xazina-yu dafinani sahrolar-u tog‘lar bag‘ridan, daryolar ostidan emas, o‘tirgan joyida yuzaga chiqaradigan raqamli industriyaning yuksak aql-idrokka, tafakkurga yo‘g‘rilgan noma’lum manzillaridan izlab topishadi.

Shu tariqa o‘zlari foyda olib, jamiyatga manfaat keltirishadi. 2023-yilda raqamli texnologiyalar bo‘yicha kurslarni tugatgan 47 ming nafardan ortiq tinglovchining 13 ming nafardan ortig‘i davlat xizmatchilaridir. Ayni damda raqamlashtirish yo‘nalishida ingliz va boshqa tillarni puxta biladigan o‘n mingdan ortiq salohiyatli yoshlarga talab mavjud. “Biz mahallalarga chiqib qidirib ham ko‘ramiz, – deyishadi soha xodimlari. – Afsuski, feysbuk, telegram, yutub singari ijtimoiy tarmoqlar qa’riga sho‘ng‘igan ermaktalablar orasidan bunday yoshlarni izlab topish oson kechmaydi”.

Yurtimizda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida hududlar va tarmoqlarni raqamlashtirish nazarda tutilgan. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalar raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etishni taqazo etadi. Raqamli rivojlanish, raqamli infratuzilma, elektron hukumat, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar singari tushunchalar endi kundalik hayotimizning turli qatlamlariga tobora chuqurroq kirib boraveradi.

Shoyim BO‘TAYEV

2024-yil 12-aprel
№ 16(16)

HIKOYA

PAXMOQDAN CHAQMOQ



Farrux JABBOROV

G‘aybi g‘altakning echkisi egiz tug‘madi. Lekin Toshkentdan uning nomi bitilgan xatjild keldi. Odamlar xat yozishni unutgan zamonda faqat chol-kampirlarga nafaqa tarqatish bilan andarmon pochtachi ham hayron, quvonchdan konvertni boshi uzra ko‘tarib, suyunchi so‘radi. G‘aybi g‘altak bir tomsuvoq hasharida ko‘maklashishga va’da qilib, xatni qo‘liga oldi.

Ko‘chada o‘tgan-qaytgan o‘zicha har xayolga bordi. Birov u dedi, birov bu dedi. Xatjild ochilguncha sabri chidamadi. Fol ochishdan to‘xtamadi. G‘aybi g‘altakning eldan yashiradigan siri yo‘q. Soliqdan qarz joyi ham yo‘q. Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich. Odamlarning ko‘zicha konvertni yonboshidan yirtdi. Avval pichirlab, so‘ng ovozini qo‘yib o‘qidi. Ikki enlik noma adog‘iga yetar-yetmas, tomog‘iga bir nima tiqildi. Ko‘z yoshini tiyayin dedi, duvillab to‘kila berdi.

Ana! Qishloqqa gap topildi. Otam zamondan beri gurunglar qizimayotgandi o‘zi. Endi to‘rt kishining boshi birikkanda davra shundan qo‘r oladi. Ayniqsa, to‘y-hashamda bozor-o‘char, oliq-soliq muhokamasidan ortganda hangomaning nishabi G‘aybi g‘altak tomon toyriladi. Ammam o‘g‘lini uylantirayotganda sabzito‘g‘rariga borib o‘zim ham guvoh bo‘ldim.

– Qishlog‘imiz tarixida hali bundaqasi bo‘lmagan, – dedi Jonuzoq malim soqolini silkillatib. – G‘aybiddinboyga Toshkentdan “Shunday o‘g‘il o‘stirganingizga rahmat!” degan xat keldi. Imzosi, muhri bilan. Menga ishonmasalaring, borib ko‘ringlar, – yonboshlagan ko‘yi o‘ng qo‘li bilan ishora qiladi, – uyining to‘rida iluvli turibdi.

Shivir-shivir: “G‘aybiddin boy?!”, “Kim, kim?”, “G‘aybi g‘altakmi?!”. Jonuzoq malim jo‘rttaga sukut saqlaydi, orada xo‘rillatib choy ichadi.

– Bugundan keyin bu qishloqda G‘aybi g‘altak yo‘q, G‘aybiddinboy bor! – salmoqlab yana gap boshlaydi. – Shunday o‘g‘il o‘stirgan odamni Toshkentda e’zoz qilibdimi, biz ham hurmatini joyiga qo‘yuvimiz kerak.

Ayrimlar “Ee, umi?!” degandek miyig‘ida kuladi.

– To‘g‘ri, G‘aybiddinboy maktabda matematikadan misol-masala yecholmay, mening kaltagimdan qashqatayoq bo‘lgan. O‘zi o‘qimasayam, bolalarining barini o‘qitdi. Buning uchun eski g‘altagini g‘iyqillatib ko‘ringannikida ishladi. Shuytib bolalarini oyoqqa qo‘ydi. O‘sha payt sen bilan men nima qilayatuvdik? – domla gurungning obdovini bu tomonga burib, miyig‘ida kulganlarni nishonga oladi. – Sen bilan men topganimizga tom solayatuvdik. G‘aybi g‘altak bizning hovlimizda ishlayatuvdi. Topganimizning yuzdan birini unga ham tomizayatuvdik. U shu tomizg‘i bilan bolalarini o‘qitayatuvdi. Oxiri kim yutdi?!

Ayrimlar chuqur xo‘rsinadi, ba’zilarning ensasi qotadi. Parmon pakki gapga aralashadi:

– O‘sha G‘aybiddinboyingizning jo‘ralari yig‘ilib nima qilibdi?! Bu yog‘ini ham gapiring-da!

– Nima qilibdi?

– Uch kun dumalab ichibdi!

– Kallasi yo‘q-da.

– Undan ko‘ra o‘rtada pul tashlab, ustudentga noutbuk opbermayma?! – Pakki eski hosilotligiga borib, nuqul foydani o‘ylaydi.



– Uning noutbugi bor. Bultur tanlovda yutuvdi, – sabzi to‘g‘rayotgan yigitcha gap qotadi. Sinfdoshini maqtashayotganidan ichiga sig‘may ketadi.

– Haa, “O‘g‘lim Germaniyada matematikadan oltin medal oldi. Kutib olgani aeroportga chiqamiz”, deb kimdan qarz ko‘tarib, kimdan yangi kiyim tilanib yuruvdi. – Parmon pakki atayin yerga urib gapiradi. – O‘shanda yutganmi noutbukni?

– Yo‘q, u voqea burnog‘i yili edi. Bunisi bultur... O‘zi, Alisher Toshkentda o‘qiyman deganida “Katta institutlarga kattalarning bolalari kiradi. Sendaqalar imtihondan bizning qudanikida janjal bo‘ladi, – Parmon pakki gapni aylantirib kelib, o‘z dardiga ulaydi.

Davra sergak tortadi. Chekka-chekkada o‘zaro gaplashib o‘tirganlar jimib qoladi. Sabzitaxta va pichoqlarning taqillashi ham tinadi.

– Bizning kuyovimiz G‘aybi ... – “g‘altak” deb yuborishiga sal qoladi: – G‘aybiboyga sinfdosh bo‘ladi-da...

– Qaysi? Kattasimi?

– O‘rtanchasi.

Pakkining to‘rtovmi, beshov qizi bor. O‘rtanchasi qaysi ekan, kimga tushgan ekan? Hamma o‘zicha tusmollaydi.

– G‘appor akaning to‘ng‘ichima?

– Yo‘q, Habi... Mengli bovaning kenjasi.

– Uning bolalari maktabga endi chiqdi-ku!..

– Majid so‘fining o‘g‘lini aytyapti...

Parmon pakki g‘ala-g‘ovur tinguncha indamay o‘tiradi. Birovi ham o‘zidan eshitaylik, demaydi-ya. Bari o‘larmonlik qilib gapini o‘tkazish payida. Oxiri toqati toq bo‘ladi:

– Oynisa mening uchinchi qizimma?! Majid akaga kelin bo‘ganma?! Ikkinchi o‘g‘liga, Karimga... Bo‘ldi-da!

– Mayli-mayli, janjaldan gapiring, janjaldan...

– Xullas, sinfdosh jo‘ralar G‘aybi... boynikiga borib, qo‘yarda-qo‘ymay ichgan. Ustudentning kistasiga bir-ikki so‘m solib qo‘yuvmiding vaqtida, deb so‘raydigan odam yo‘q. Keyin Karim kuyov uyga kelib, qizimizni to‘balagan. Nega sen geniy tug‘maysan, deb.

– Geniyni ena tug‘armikan, ota tarbiyalaydi-da! – deydi Jonuzoq malim chap yonboshidan o‘ng yonboshiga ag‘darilib. Aytgan gapiga biroz o‘ylanib qoladi. – Lekin qars ikki qo‘ldan, degan gaplar ham bor.

– Shu adolatdanmi?! – Parmon pakki qizisha ketadi. – Tashakkurnomani G‘aybi... g‘altak olsa-da, kaltakni bizning qiz yesa...

Pichoqlar sabzitaxtaga qattiq-qattiq tega boshlaydi. Ikkiora-uchora shivir-shivir oyoqlanadi. Parmon pakkining shu odati qolmadi-da. Qizlari-yu kuyovlarining o‘rtasiga tushgani tushgan. Balki, bittagina o‘g‘li bo‘lganida, bittagina kelin olganida... tushunarmidi?!

Sekin o‘rnimdan turaman, tashqarilayman. Daraxtga omonat osig‘liq chiroq arang yoritib turgan o‘choqboshida ham shu g‘ishava ekan.

– Qishlog‘imizning obro‘yi-da! – deya gapini ma’qullayotgandi Qurvon shildir.

Qozon atrofi tongda osh tortiladigan stol-stulli davradan oq mato bilan ajratib qo‘yilibdi. Biqqi oshpaz yaxna go‘sht pishiryapti, archa hidi... Xontaxtani qo‘rg‘alab yosh-yalang turibdi. Qurvon shildirga o‘xshagan otam qatorilari ham bor. Bitta “yarimta”ni tik oyoqda maydalayaptilar.

– Qani, urdik! Qishlog‘imizda shundaqa bollar ko‘payaversin!

Bu yer ham menga to‘g‘ri kelmas ekan. Yetmasdan ortimga qaytaman, ko‘rib qolmaganlari ma’qul. Yangalar, qizlar zinadan ayvonga ko‘tarilib, hovliga tushib yuradi. O‘ng qo‘ldagi uyga kirib-chiqadi. Haytovur, momolar, amma-yu xolalar shu yoqda bo‘lsa kerak. Ichkari mo‘ralayman:

– Assalomu alaykum!

Keng uy to‘rida choy ichayotgan, quyiroqda likobchalarga qand-qurs solayotgan... barcha yalt etib qaraydi.

– Ke, kelaver. Begonasi yo‘q.

O‘zimizga tobinlar bemalol o‘tiraveradi. Sal narilar, ayniqsa, yangalar yig‘inib oladi: ro‘molini, yoqasini to‘g‘rilaydi. Hol-ahvol so‘rashilgach, hangomani uzilgan joyidan davom ettiradilar.

– Nima deyayotuvdim?! Ha... Alisherjon amaliyot o‘tagani bizning ishxonamizga keldi, – deydi Munisa bug‘oltir. – Bir savollar beradi, uyalib qolamiz. Sen tashqariga chiqib tur deb, to‘rt hamkasb maslahatlashib olamiz. Kattamizga kirib so‘raymiz. Tanishlarga telefon uramiz. Oxiri tushuntirdik: “Sening joying bu yer emas ekan. Bor-da, yaxshiroq idorada amaliyot o‘ta. Qog‘oz kerak bo‘lsa, muhr bosib beramiz. Lekin o‘qishni tugatgandan so‘g‘in o‘zimizga ishga kelasan, rahbar bo‘lib...”

– Shul G‘aybining o‘g‘li-da? – so‘raydi Hanifa momo, ichiga botgan ko‘k ko‘zlarini Munisa opaga tikib. Salqi bo‘ynidagi aqiq shodasi silkillab ketadi. – Paxmoqdan chaqmoq, deganlari shul-da...

Qishloqda yaqin-orada hech kimning sigiri buzoqlamaganmi deyman. Na birovning qizi eridan arazlab kelgan, na birovning uyiga o‘g‘ri tushgan. Hech qursa, biror-yarimta televizorda futbol ko‘rayotib “Gol!” deya baqiraman deb og‘zidagi nosini yutib yubormagan-da. Oxirgi to‘yda emaklab qolguncha ichganlarni, raqqosaga tegajoqlik qilib o‘ynaganlarni ham gapirishmaydi-ya. Topgan gurunglari “G‘aybiddinboyga o‘g‘lining domlalaridan “Otangga rahmat!” degan bitik keli-i-i-ibdi!”

Shunga nima bo‘libdi?! Adashib-madashib ketgandir... Avvaliga-ku, yoqdi bu gurung, keyin-keyin e’tibor bermaslikka urindim. Indamasam... Mana, men ham Toshkentda yuribman-ku! Nega “Hasanboyding o‘g‘li...” deb maqtashmaydi, a? Ko‘ziga ko‘rsatmasammi bularning! Hikoya yozaman. Yozuvchi bo‘laman. Kitob chiqaraman. Barining oldiga bitta-bittadan tashlayman. Dastxat yozishni ham unutmayman. Ko‘rib qo‘yishsin biz kim, G‘aybi g‘altakning o‘g‘li kim?!

SHE’RIYAT

Sen bergan umrni oshufta kezib...



Sanobar MEHMONOVA

1981-yilda tug‘ilgan. O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetini hamda O‘zMU qoshidagi Oliy adabiyot kursini tugallagan. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi. “Yashil ibodatlar”, “Xayyomona xo‘rsiniqlar”, “Fano sarhadlari” she’riy to‘plamlari chop etilgan.

O‘LMASMAN

Dilimga Ishqingni yopsang, o‘lmasman,
Shu ishqdan o‘zingni topsang, o‘lmasman.
O‘larman va agar o‘lar chog‘imda –
Kelib ko‘zlarimdan o‘psang, o‘lmasman.
Bu gulgun tuyg‘udan mast bo‘lib kelsang,
Poyimga yerdanam past bo‘lib kelsang,
Men bilan o‘lmoqqa qasd bo‘lib kelsang –
Bag‘rimga jon kabi to‘lsang, o‘lmasman.
Samolar azmiga seni chorlasam,
Sabolar nazmiga seni chorlasam,
Laylolar bazmiga seni chorlasam,
Bormay ko‘zlarimda qolsang, o‘lmasman.

Umr o‘tar yoz-u qishli, qirovli,
Hol bormi
Holing ne, deya so‘rovli.
Ko‘ksimda bir taft bor o‘tdan olovli –
Shu taftdan bir hikmat topsang, o‘lmasman.
Qarorim qolmadi, to‘zimga hayda,
Bir so‘z aytib borsam, so‘zimga hayda.
O‘zimga kelayin, o‘zimga hayda –
Keyin shu jonimni olsang, o‘lmasman.
Ming yilki to‘kilar yoshim duv meni,
Jin chaldimi yoki pari dev meni.
Sev meni, sev meni, yana sev meni –
So‘ng qancha firoqqa solsang, o‘lmasman.
Ko‘ksimga hajringni yopsang, o‘lmasman,
Unga ajal atrin sepsang, o‘lmasman,
O‘larman va agar o‘lar chog‘imda –
Kelib ko‘zlarimdan o‘psang, o‘lmasman.
Ruhimga ishqingni yopsang, o‘lmasman.

Shu ishqdan Xudoni topsang, o‘lmasman...

* * *

Bir g‘urubda dil etgach xato,
Bir qutbda adashdi osmon.
Endi ishqman, o‘lgunimcha to,
O‘lgunimcha bir ishqdan mastman.
Men – kunlarga yetmagan bir tun,
Kechalarda kun kechgan xatar.
Yolg‘izgina oshiq ko‘nglimni
Yengmoqqa yo‘q bir ma’shuq Kadar.
Sog‘inchlarim sog‘indi seni,
Sog‘inchlarga asir tushganman.
Yomg‘irlarning iligidan yeb,
Daraxtlarning qonin ichganman.
Shundan dilbar ko‘rinar olam,
Cho‘kib ma’sum tarovatiga.
Shundan har tong some’man men ham
Maysalarning ibodatiga.
Shundan buyon kengayadi yer,
Shundan buyon torayar osmon.
Eh, yulduzlar nima desa der,
Men tuproqning hididan mastman.

* * *

Tili bo‘lganida so‘zlay olganida
Eng zo‘r shoir bo‘lardi Daraxt.
Agar bilganida –
Havodan ham o‘zga daftar borligini,
Osmondan ham og‘ir zalvor borligini
Qo‘li bo‘lganida chizardi Daraxt,
Yig‘lab havolarga yozardi Daraxt.
Dili bo‘lganida
Gullamoq va xazon bo‘lmoqning oralig‘ida
Bir ulkan muhabbat ulkan ayriliq
Borligini bilganida edi
Voh, aqlidan ozardi Daraxt.
Har bir yaprog‘iga yozardi Daraxt,
Men kabi to‘kilib tonardi Daraxt,
Bu ishqda gurillab yonardi Daraxt.
Yaxshiyam
Daraxt emas,
Odam etganingga shukr
Xudoyim!

MUNOJOT

Vaslingdan mosuvo kunlarni kechdim,
Ey, bir xor, bir rasvo kunlarni kechdim,
O‘limday bedavo kunlarni kechdim,
Kechib o‘tarmanmi yodingni, Xudo?
Falak nayrangidan ruhim ichmadi,
Ko‘nglimni qush qildim, bir bor uchmadi,
Bir qoshiq qonimdan dunyo kechmadi,
Kechib o‘tarmanmi ishqingni, Egam?
Fano bog‘laridan yaproq to‘kilar,
Har yaproq bandida bir oh to‘kilar,
Boq, jonim, shu lahza Alloh to‘kilar –
Kechib o‘tarmanmi nuringni, Xudo?
Nigoh solsam ko‘zim yo‘llarga tushdi,
Dilin topolmagan, dillarga tushdi,
Zanjirlarga tushdi, g‘ullarga tushdi,
Kechib o‘tarmanmi erkingni, Xudo –
Ki qandoq vasf etay ko‘rkingni, Xudo?
Sanobar edim man, azal ozorlig‘,
Junun peshonamga bitilgan yorlig‘.
Butkul devonaman, butkul xummorlig‘ –
Quchib o‘tarmanmi arshingni, Egam?

Dardimni she’r qildim ko‘ksimga yozib,
So‘rma hech, bir sevdim aqlimdan ozib,
Sen bergan umrni oshufta kezib,
Kechib o‘tarmanmi yodingni, Xudo,
Sen kechgil men kabi dodingni, Xudo!

* * *

Rangin dunyongizda menga nima bor,
Kiyganim adrasmi yo ipak shoyi.
Ruhimda yig‘laydi darveshona mung –
Men bir xirgoyiman, hazin xirgoyi...
Ishqim – Xudoyimga bitgan maktubim,
Boshimda ming savdo, dilbar savdoyi.
Kel, meni shivirla azizim –
Men bir xirgoyiman, go‘zal xirgoyi....
Sen bilan birgaman, ey pokiza so‘z,
Garchand yuragimda sukut anvoyi.
Hargiz anglamading, sezmading afsus –
Men bir xirgoyiman, qadim xirgoyi...
Mensiz sabil qolar kuylaring, evoh,
Ohanging almoyi-aljoyi.
Tangrim Senga Mendan bergandi saboq –
Men bir xirgoyiman, buyuk xirgoyi...
Yam-yashil til bilan roz aytdi Bahor,
G‘unchalarga yoqdi shamolning poyi.
Buncha “Nag‘ma”larga aytgin, nima bor –
Men bir xirgoyiman, sodda xirgoyi...
Ko‘zlarimda yig‘lar go‘zal hodisot,
Men husnning shohi, mehr gadoyi.
Bag‘rimdan qon yanglig‘ kuy sizar hayhot –
Men bir xirgoyiman, buyuk xirgoyi...
Shaklidan ming chandon go‘zal shamoyil,
Ruhida bazm etar sirlar anvoyi.
Siz bir kuylab ko‘ring, degaysiz qoyil –
Men bir xirgoyiman, suyuk xirgoyi...
Chig‘anoqqa kirib, durga aylangan,
Zulmatni mahv etib, nurga aylangan,
So‘ngra yerga tushib,
she’rga aylangan –
Men bir xirgoyiman, nafis xirgoyi...
Bir nurman, falakdan yerga yog‘ilgan,
Meni deb ochilmish baxtning chiroyi.
Sening hajring bilan ruhim bo‘g‘ilgan –
Men bir xirgoyiman, munis xirgoyi...

Sen sira o‘ksima, devona dilim,
Bir qo‘shiq bo‘lamiz, ISHQday anvoyi.
Pichirla, sevgilim, kuyla, sevgilim –
Men bir xirgoyiman, latif xirgoyi...
Nafas yanglig‘ yutdim, ishqingni qoyim,
Ruhimga shavq kelmish, sirli – yovvoyi.
Bir buyuk avjlarga ko‘tar, Xudoyim –
Men ham xirgoyiman, sokin xirgoyi...
Bir suyuk mavjlarga ko‘tar, Xudoyim –
Men bir xirgoyiman, buyuk xirgoyi...

* * *

Men kimman?
Gulning yaprog‘iga Xudo bitgan xat,
Tuproqqa havola qilingan tanman.
Ming yilki Oshiqlar anglolmay diqqat –
Ishq deya atalgan eng sirli fanman.
Men kimman,
Osmonning zaminga ekkan,
Ahli Ishqqa hadya quyoshiman men.
Zulayhoning Yusuf hajrida to‘kkan –
Sevgiga aylangan ko‘z yoshiman men.
Men kimman,
Mavlono Rumiyning ichkin nolasi,
Shams Tabriziyning faryodiman men.
Onamning eng sodda, dono bolasi –
Yaratganning go‘zal ijodiman men...
Men kimman,
G‘unchalar Ishq tukkan mahal
Alloh, deb oh chekkan nidosiman men.
Ming yilki bir dilning qoshida mahtal –
Yoronlar, sog‘inchning adosiman men...
Men kimman,
Majnunning samoviy ohi,
Laylidan olmagan qasosiman men.
Hazrati Ayyubning ijobat chog‘i –
Ijobat etilgan duosiman men.
Shu duo xayridan dunyoga kelgan –
Dunyoning samimiy dunyosiman men.
Har lahza ming to‘lib, ming bor to‘kilgan –
Ko‘ngilning bir ma’sum daryosiman men.
Ey falak, dastingdan dod demasman, yo‘q,
Har neki ko‘rguzding – shaydosiman men.
Taqdiri azalning gul bilan bitgan –
Sanobar atalmish inshosiman men...

ADIB VA JAMIYAT

FIKRLASH – IZTIROB BILAN YASHASH DEGANI

Taniqli adib va adabiyotshunos Nazar Eshonqul bilan suhbat



– Bundan o‘n yil oldin nashr etilgan bir maqolangizda: “Hayot va adabiyot bizdan chinakam iste’dodlarni va “men”larni talab qilmoqda”, deb yozgan edingiz. Bugun yoshlar orasida iste’dodli ijodkorlar ko‘p. Ammo Cho‘lpon, Qodiriy, Fitrat kabi ichida o‘z “men”i, aytar so‘zi borlarga, ya’ni shaxslarga hamon muhtojdaymiz. Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz? Axir biz ozodmiz-ku, shaxslarni yo‘qotishni maqsad qilgan mafkura boshimizda qilich o‘ynatib turgani yo‘q-ku? Yo siz o‘tgan o‘n yil mobaynida bu borada nimadir o‘zgarish sezdingizmi?

– Bu gapni qayerda, qachon aytganim esimda yo‘q. Aytgan bo‘lsam, hozir ham shu fikrim o‘zgarmagan. Men bu yerda iste’dodning “men”ini topish orqali ijodiy shaxsga aylanishini nazarda tutganman. Iste’dodlar ko‘pligi bu hali ular o‘z “men”ini ham namoyish qilyapti, degani emas. “Iste’dod”ning o‘z uslubini topishi, so‘zga bo‘lgan e’tiqod paydo bo‘lishi – bu uning adabiy shaxsga aylanganini bildiradi. Ammo sizning savolingizda ijodkorning adabiy shaxsligidan ko‘ra shaxsning ijtimoiy maqomiga ko‘proq urg‘u berilyapti. Bu bilan bizda adabiy shaxsga emas, ko‘proq ijtimoiy maqomdagi shaxsga ehtiyoj baland ekani ayon bo‘lyapti. Demak, bizning ijtimoiy masalalarda savollarimiz ko‘paygan va biz shaxslar orqali ularga javob izlash istagidamiz.

Qadimda jang maydonida qon kam to‘kilishi uchun pahlavon o‘rtaga chiqib, “Kim talabgor bo‘lsa, o‘rtaga chiqsin” deb hayqirarkan. O‘n mingmi, yigirma mingmi, lashkardan besh yo o‘ntasi talabgor bo‘lgan. Vaholanki, maydonga kelganlarning hammasi o‘zini “askar” deb hisoblagan va ma’lum bir tayyorgarliklardan o‘tib, saralab olingan. Bugungi shaxsga bo‘lgan ehtiyojimiz menga o‘sha o‘ziga talabgor izlayotgan pahlavonni eslatadi. Bizning tasavvurimiz hamon “jang” holatida. Mabodo, shaxsga ehtiyojimiz bor va bu haqda keyingi paytda juda ko‘p yozilayotgan ekan, avvalo, kimlar shaxslik supasiga chiqa oladi, qaysi fazilatlar shaxs bo‘lganlik mezonlari yoki ko‘rsatkichi sanaladi, degan savolga ham javob izlab ko‘rish kerak. Ammo bugun insonning ruhiyati juda murakkablashib ketdi. Biz shaxsga tayyor shablon bilan baho berolmaymiz.

Bugungi ijtimoiy tarmoqning yaltiroq pufaklari ko‘zimizni qamashtirib turgan pallada biz tasavvur qilib kelgan shaxsga xos xususiyatlar xira tortganini tan olaylik. Olomon vasvasasi bilan shaxsning fazilatlarini farqlash tobora og‘irlashib boryapti. Shaxs haqida tasavvurimiz xos kishilarning maqomidan olomonchilik tarziga moslashib bormoqda. Biz shaxsning kushandasi bo‘lgan olomonchilik didi va saviyasi hukmronligi davrida yashayapmiz. Olomonchilik didining tomir yoyishi – oxir-oqibat shaxsning yo‘q bo‘lib ketishiga olib keladi.

Olomonda shaxsini tasdiqlovchi fikr bo‘lmaydi. Fikrli bo‘lish esa bu iztirob, uqubat bilan yashash degani. Fikr darddan tug‘iladi, fikr qilish – ilohiy anduhni qabul qilish degani. Olomon esa hamisha tayyor iste’molchi bo‘ladi, u tayyorini qabul qiladi, shaxs kabi o‘zi yaratmaydi. Shaxs qo‘li kishanda, jismi iskanjada bo‘lsa ham fikr qiladi, shu bilan u o‘zini ozod qilish yo‘lini izlaydi. Insonning haqiqiy erkinligi Olam parchalangandan, bo‘lingandan keyin paydo bo‘lgan va ming yillar davomida shakllanib bo‘lgan irsini boshqarib turgan olomonchilik iskanjalaridan o‘zini o‘zi ozod qilishi bilan belgilanadi. Tarix guvohlik beradi: ijtimoiy inqiloblarning hammasi olomonchilik didi va hukmronligining hosilasi bo‘lib kelgan. Uning vositasi hamisha zo‘rlik bo‘lgan. Shaxs esa zo‘rlikning har qanday ko‘rinishi bilan kelisha olmaydi. Yana o‘sha tarixga boqsak, ijodiy inqiloblarning barchasini shaxslar sodir etgan. Bu inqiloblarning vositasi hamisha fikr bo‘lgan.

Umuman, biz negadir keskin xulosa chiqarishga ruju qo‘ydik. Kuni kecha “haromi”, “o‘g‘ri”, “sotqin” kabi haqoratlar bilan salkam vatan dushmaniga chiqarilganlarni sal o‘tmay “dardi bor ekan”, “uzoqni ko‘zlagan ekan”, “rostgo‘y ekan”, “katta shaxs ekan”, deya boshlaymiz. Xullas, baho berayotganda qutbning yo u burchida, yo bu burchida turishni istaymiz. Aslida bu ham olomonga xos bo‘lgan xohish-irodadan boshqa narsa emas.

– Yuqorida aytganingizday, biz shaxsga tayyor shablon bilan baho berolmaymiz. Ammo yosh avlodga ibrat qilib ko‘rsatish mumkin bo‘lgan kimdir bo‘lishi kerak-ku. “Kimlar shaxslik supasiga chiqa oladi, qaysi fazilatlar shaxs bo‘lganlik mezonlari yoki ko‘rsatkichi sanaladi?” degan savolga javobni o‘zingizdan so‘ramoqchiman...

– Shaxs haqida so‘z ketganda negadir Mirkarim Osim ko‘z oldimga kelaveradi. O‘zim ko‘rganim yo‘q. Menga aytib berishgan. Juda xokisor kishi bo‘lgan ekan. Umrida birovning ko‘ziga qarab gapirgan emas. Surgundan qaytgandan so‘ng bir nashriyotda kamsuqumgina vazifada ishlagan. Uning bor-yo‘qligini birov bilmagan ham. Boshliqlarga hech qachon ovoz chiqarib qarshi turmagan, gazetalarda odamlarni junbushga soladigan maqolalar yozmagan, davralarda so‘z olib, e’tiqod-u adabiyot haqida so‘zamollik qilmagan. Birovga malol keladigan qilig‘i bo‘lmagan. Shunchaki, ko‘zga tashlanmay, o‘zini bildirmay, talotumlardan bir chetda yashab o‘tgan. O‘sha roviyning aytishicha, Mirkarim Osim birovga xalaqit bermaslik uchun yo‘lakning eng chetidan, devorga taqalib yurar ekan. Yelkasi tegib yurganidan yillar o‘tib devor to‘g‘ri chiziq bo‘lib sidirilib qolgan ekan. Agar bugungi ijtimoiy tarmoq to‘lg‘og‘i tutgan qarashlarimiz bilan qarasak, u qo‘rqoq, dami ichiga tushgan, mute va tovushi chiqmaydigan ojiz, har qanday zulmga ko‘nikkan notavon odam bo‘lib chiqadi. Shu sifat bilan baho bersak, uni shaxs deganning yoniga ham yo‘latib bo‘lmaydi. Ammo men Mirkarim Osimni XX asr o‘zbek adabiyotidagi katta shaxs deb bilaman. Chunki u shu xokisor yashashi bilan ichini hech kimga sotmagan. Kimlardir unvonlar-u martabalar, e’tiroflar-u e’tiborlar uchun kommunistik obrazlarni ilohiylashtirib, jild-jild asarlar bitib yotganida, u o‘sha o‘zining burchagiga tiqilib olib, Shiroq, To‘maris, Torobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy haqida yozgan, ohak yuqqan yelkasini devorga surkab, halimlik bilan o‘tayotganda u millatning unutishga mahkum siymolari haqida xayol surgan. Tasavvur qiling, adib bu asarlarni “Sening tarixing yo‘q, senlar savodsiz olomon bo‘lgansanlar, senlardan daholar chiqmagan”, degan siyosat yurgizilib, aks fikrlovchilar zulm tig‘iga ro‘para qilinayotgan bir pallada yozgan va shu iddaosi bilan ma’nan har qanday jazoga tayyor bo‘lgan, qulatilgan millat ustunlarini o‘zining halim ko‘rinishi orqali tiklashga kirishgan. U bu bilan ichdan chirkin muhitga o‘z isyonini, o‘z qarashlarini bayon qilgan. Beozor qiyofasi orqali butun boshli saltanat mafkurasiga qarshi turgan. Davrdosh bo‘lgan, unvonu martabalardan salobatlashgan siymolar oldida uning nomi ko‘rinmay turadi. Ammo Mirkarim Osim sotmagan va sotib olinmaydigan fazilatlarini asarlarida – o‘z “men”ida namoyon qilgani, ijodkor sifatida qarshi tura olgani bilan menga katta Shaxs bo‘lib ko‘rinadi. Zamona ijtimoiy inqilobni madh etib turganda u o‘z ichidagi ijodiy isyoni bilan birga qola bildi.

Xo‘sh, bugungi kunda ham bizning e’tiborimizdan chetda qolgan, siz nazarda tutgan shaxslar yo‘qmi? Men “bor” yoki “yo‘q” deb keskin xulosa qilishdan tiyilgan bo‘lardim. Bizning baholash mezonlarimizni Mirkarim Osimga o‘xshash shaxslarning sukuti va kamsuqumligi fosh qilib qo‘yadi.

Shunga ko‘ra, men davrimizning shaxs va shaxssizligi haqida tugal xulosa aytish tarafdori emasman. Suv loyqalanib turganda uning tagidagi baliqlarning katta-kichikligi ko‘zga tashlanmaydi.

Biroq bu istiholamiz shaxsning fazilat va xususiyatlarini, unga qo‘yilgan talablarni zarracha xiralashtirmaydi. Sel paytimi yo sokinlik faslidami, qay davrda yashashidan qat’i nazar, shaxs hamisha o‘zining daxlsiz hududida turadi. Shu talabdan qaralsa, iste’dodlarning hammasi ham shaxs bo‘la oladi, deb xomtama bo‘lmaylik. Iste’dod o‘zining daxlsiz hududiga o‘ta olgan bo‘lsa, unda u men qachonlardir nazarda tutgan “men”ini topgan. U hududga yetib borolmagan bo‘lsa, unda uning oddiy hunarmand bo‘lib qolayotganidan ajablanmaslik kerak. Shuning uchun meni ichida isyon chatnab turgan (avval ham aytganman, men “isyon” deganda noroziligini panshaxa ko‘tarib chiqish orqali ifoda qiluvchini emas, balki qaysi sohada bo‘lmasin, eskini yangilashning, yaroqsizni tuzatishning va tasavvur qoliplarini buzish namoyishi deb tushunaman) ijodkor emas, hunarmand yasashga ko‘proq e’tibor bermayapmizmi, biz iste’dod deb baho berayotganlar Abdulla Qahhor nazarda tutgan kosiblar emasmikin, degan savol ko‘proq o‘ylantiradi. Hunarmand bilan ijodkorlik bir narsada farq qiladi: ijodkor o‘zicha yangi yo‘l, yangi shakl, yangi mazmun topishga intiladi, hunarmand esa mavjud qoliplar asosida mahsulotlar sonini ko‘paytiradi. Hunarmanddan katta shaxs bo‘lishini talab qilolmaymiz, ammo ijodkor shaxs bo‘lishi kerak, yo‘qsa, uning iste’dodi hunarmandchilik bilan bo‘ylashib qolaveradi. Hunarmandni yasash va urug‘ini ko‘paytirish mumkin, chinakam ijodkorni yasab bo‘lmaydi. Unga faqat o‘zini namoyon qilishiga imkon berish kerak.

– Shaxslik ilohiy ne’matmi, qon bilan kiradimi yoki jamiyat tomonidan tarbiyalanadimi? Yo avvalgilardan ulgu olib, insonning o‘zi o‘zini shaxs qilib tarbiyalaydimi?

– Shaxs bo‘lishga “urinib”, “havas qilib” erishib bo‘lmaydi. Mabodo shunday bo‘lsa, bu yasama shaxslik bo‘ladi. Odam “Men ham falonchiga o‘xshab katta shaxs bo‘lishni istayman”, degan orzu bilan maqsadga erisholmaydi. Shaxs bo‘la olish ham iste’dod, Xudo yuqtirgan tabiatning amaliy ko‘rinishi, harakati, jazbasi. “Men ham falonchidek vijdonli bo‘laman”, degan iddao qanchalar erish bo‘lsa, “shaxs bo‘laman” degan da’vo ham shunday. Vijdonli bo‘lishni orzu qilish yaxshi, ammo vijdon tiynatiga ekilgan bo‘lmasa, u baribir, vijdonli bo‘lib qolmaydi. Vijdon – inson ruhiyatidagi Xudoning ko‘zi. Bu ko‘zni havas bilan paydo qilib bo‘lmaydi. Tarbiya va muhit bu ko‘zni yo ochadi, yo butunlay yopib qo‘yadi, yoki chala ko‘radigan qiladi. Havas yo hasad qilib shaxs bo‘lishga intilish ham taxminan shunday. Ta’lim-tarbiya tufayli tiynatdagi qudratga ishonch va rag‘bat uyg‘onadi, bu – buloqning ko‘zini ochib yuborishga o‘xshaydi. Buyuk shakslardan “ulgu olish” bu o‘zining tiynatidagi ko‘zni, shaxslik quvvatini ochish, yolg‘onchi dunyoning yolg‘onlari bilan kurashishda yolg‘iz emasligini his qilish, shu yolg‘onlarga qarshi birdan bir kurashish uchun tiynatiga ekilgan shaxslikni safarbar qilishga o‘tish degani.

– Sizningcha, bugungi o‘zbek adabiyotida jahon adabiyotidan o‘rin olgulik asarlar bormi?

– Adabiyot – millatning badiiy tafakkur shakli. Faqat so‘z bilan ifoda etiladi, xolos. Millat bir paytning o‘zida milliy, ayni damda, umumbashariy universal ifodaga ega. Gap o‘sha milliy universallikni topishda. Millat tafakkuri darajasi qanday bo‘lsa, uning badiiy ifoda ko‘lami ham shu qoziq atrofida aylanadi. Masalan, Alisher Navoiy asarlari – bu Amir Temur imperiyasi tafakkur tarzining ifodasi. “Boburnoma” – bu imperiya tanazzuli davrining psixologik va badiiy tajassumi. Siz yuqorida keltirgan Qodiriy, Cho‘lpon, Fitratlar ma’rifatchilik harakati tafakkuri va istaklari mahsuli. Rauf Parfi ijodi hatto his-tuyg‘u ham ijtimoiylashgan vaziyatda individning muhit bosimidan o‘zini ixota qilish shakli ifodasi (bu ham universal ijodiy isyon). Ana shu jihati bilan bu ijodkorlarning asarlarida bashariy universallik bor. Xullas, har bir davrning o‘z so‘zi, o‘z universal ifoda tili bor. Shuning uchun bu savolga zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligi javob topgani ma’qul. Bu borada men faqat bir mulohazamni aytishim mumkin: dunyo galaktikalarga sayohat qilish yo‘lini izlayotganda, yuz yil avval jadid bobomiz aytganday, biz “masjidga chap oyoqdami yo o‘ng oyoqda kirish” haqida bahslashib yotibmiz... Oradan bir asr o‘tsa-da, idrokimiz o‘zgarmadi.

– Fikrlayotgan odam – o‘zligini anglashga, o‘zini topishga urinayotgan odam. Sizning ta’biringiz bilan aytganda, o‘zidan qochib o‘ziga borayotgan odam. O‘zingizdan o‘zingizgacha bo‘lgan yo‘lning qancha qismini bosib o‘tdingiz? Bu yo‘lda ko‘zlangan manzil qayerda va unga yetib bo‘ladimi?

– Keling, bu savolingizga umumiyroq javob beray. Bizning asl milliy, jumladan, so‘fiy bobolarimiz falsafasiga ko‘ra, Inson bo‘laklangan yaxlitlikning zarralari, xolos. Ichimizdagi azaliylik – bu ichimizda biz yashashga mahkum hasrat. Bu hasrat tagida yaxlitlik sog‘inchi yotadi. Ichimizdagi ruh esa betinim o‘sha yaxlitlikka intilib yashaydi. Ruhimizdagi sog‘inch – aslida o‘sha yaxlitlik sog‘inchi. Ichimizdagi nomsiz g‘ussa, aslida ayrolik g‘ussasi. Biz faqat bu g‘ussani, bu sog‘inch iztirobini turlicha nomlaymiz, shu bilan o‘zimizni aldab yashaymiz. Shuning uchun o‘zimizdan tashqaridagi fojialar ham asli bu o‘zimizning fojiamiz. Agar idrok bilan razm solsak, koinotdan tortib, yonimizdagi biz dushman deb biladigan odamgacha bu – o‘zimiz. Uning ketari ham, kelari ham o‘zi. Uning manzili ham insondan insongacha, insonning, panteistlar ta’kidlagandek, vahdatul vujud bilan uyg‘unlashishigacha. Inson – o‘ziga xos subyekt, biologik va ijtimoiy mavjudot. Ayni shu mavjudotligi bilan bir paytda u koinotni o‘zida tajassum etgan timsol. Insonning olamni bilishi o‘zini bilishi sari yo‘l. Yoki o‘zini bilish – olamni bilishga intilish, o‘zini o‘zi xalos qilish degani. Adabiyot barcha ta’limotlardan farqli o‘laroq, insonni tashqaridan emas, o‘zidan izlashga – o‘z “men”ini, o‘z erkini topishiga da’vat qiladi – bu da’vat toki tashqarida deb o‘ylaganlari hammasi o‘z ichidaligini, tashqari o‘zining ichkarisi bilan bir butun ekanini anglab yetguncha davom etadi, o‘zidan qochib, o‘ziga borgani sari, o‘zini o‘zidan topgani sari koinotga, vahdatul vujudga yaqinlashaveradi. Bular hammasi fikrlash, anglash, idrok orqali sodir bo‘ladi. Mashhur bir donishmand dunyodan o‘tayotganda “Dunyoning bor bilimini egalladim. Lekin shu bilib bo‘lganlarim haqqi tan olamanki, men o‘rganishim kerak bo‘lganlar oldida bilganlarim hech narsa”, degan ekan. Hozir kimligi esimda yo‘q. Balki Beruniydir? Shuning uchun ham qancha masofani bosib o‘tmasin, fikrlayotgan, ma’rifat bilan yashayotgan odam o‘zini yo‘l boshida deb hisoblaydi. Chunki insonning ayni holati va idroki hali yaxlitlikni to‘liq o‘ziniki qilishga qodir emas. Shunday bo‘lsa-da, uning ruhi betinim yaxlitlikka, butunlikka intiladi. Inson shu darajada murakkab xilqatki, u qiyomatgacha kashf qilinadi. Insonni tahlil qilish va insonga, qalbga qarab intilish aslida vahdatul vujudni o‘z “men”ida birlashtirish degani. “O‘zidan qochib, o‘ziga borish” deganimda men mana shu holatni ko‘zda tutganman.

O‘zimga kelsak, bu umumiy izohlardan orttirib biron narsa deya olmayman.

Oydin YO‘LDOSHEVA
suhbatlashdi



MULOHAZA

Amerikalik mashhur vosvos Stiven Blumberg dunyo tarixida “ashaddiy kitob o‘g‘risi” degan nom bilan qoldi. U o‘z vatanidagi ikki yuz oltmish sakkizta kutubxonadan yigirma uch ming dona (!) kitob o‘marganlikda ayblandi va ma’naviyat xazinasiga 20 million dollar zarar yetkazganligi uchun katta miqdorda jarimaga va olti yillik qamoq jazosiga hukm etildi. Stiven o‘g‘irlagan nodir asarlarning bir qanchasi kutubxonalarga qaytarildi, albatta. Ammo allaqachon “joyini topib ketgan” kitoblar agar kerakli qo‘llarga yetganida, tafakkur olamiga qay darajada samarali xizmat qilishi mumkin edi...



Aslida o‘g‘rilik ruhiy kasallikning bir turi bo‘lib, fanda bu “kleptomaniya”, o‘zbekchasiga aytganda “odatlanish” deyiladi. Odatlanish esa asosan irodaning zaifligi oqibatida yuzaga keladi.

Rossiya statistikasi 2023-yilda Jorj Oruelning “1984” asarini ushbu mamlakatda eng ko‘p o‘g‘irlangan kitoblar ro‘yxatiga kiritdi. Shuningdek, ro‘yxatda bolalar adabiyoti ikkinchi va maktab darsliklari uchinchi o‘rinni egallagan. Ushbu ma’lumotga ko‘zim tushganida, xayriyatki, bizda bunday katta o‘g‘riliklar sodir etilgan emas, deb o‘ylagan edim. Biroq respublika Bosh prokurori Nig‘matilla Yo‘ldoshevning yaqinda gazetamizda e’lon qilingan “Xalq mulki muqaddas!” sarlavhali maqolasini o‘qib, Stiven Blumberg chalingan xavfli kasallik o‘zimiznikilarga ham yuqqaniga amin bo‘ldim. Meni ajablantirgani shu bo‘ldiki, yuqoridagi maqolada qayd etilgan yirik o‘g‘rilik ishiga kutubxona rahbarining o‘zi bosh-qosh bo‘lgan. O‘zbekiston Milliy universitetining axborot-resurs markazida saqlanayotgan XIII-XIX asrlarga oid 57 dona nodir qo‘lyozma kitob va 12 ta toshbosma asar, 9 ta tarixiy hujjatning gumdon qilinishi kitob o‘g‘irligi bizda ham xavfli tus olayotganidan dalolat beradi. Axir, birgina universitetda talon-toroj qilingan durdonalarning qiymati 2,6 trillion so‘mga baholangan. Agar axborot-resurs markazining “qaroqchilar” guruhi o‘z vaqtida fosh etilmaganida, bu raqam yanada kattalashib ketishi tayin edi.

Odamlar orasida “kitob o‘g‘risi – o‘g‘ri emas”, degan noto‘g‘ri tushuncha bor. Lekin ulamolarimiz o‘g‘rilikning har qanday turi shar’an harom ekanini ta’kidlaydilar.

Shaxsiy kutubxonamdagi eng yaxshi ko‘rgan kitoblarim ichidan bir necha yillardan buyon qidirib topolmayotganim – Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asariga ma’naviy ehtiyojim ham ushbu maqolani yozishimga bir sabab bo‘ldi. Bu kitobni o‘g‘irlatganimga o‘n yilga yaqin vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, hamon ushbu qaroqchilikni kechirolmayman va agar uni qaytaradigan bo‘lsa, o‘sha bibliokleptoman, ya’ni kitob o‘g‘risiga bosh-oyoq sarpo qilishga ham tayyorman.

Yo‘q, kitob o‘g‘rilari (ularni bu nom bilan atayotganim uchun ich-ichimdan xijolat chekyapman) uyimdan “Mantiq ut-tayr”nigina olib ketgan emaslar. Yo‘qolgan kitoblarim ro‘yxati katta. Juda g‘aroyib tarzda g‘oyib bo‘lganlari ham bor. Masalan, Gabriel Markesning tanlangan asarlar to‘plami. Bu kitob sotib olgan kunimning ertasigayoq yo‘qolgan. Har gal esimga tushganida shunday katta kitobni ko‘zimni shamg‘alat qilib olib chiqib ketishni uddalagan kimsaga qoyil qolaman.

Nima bo‘lganda ham, kitob o‘g‘irligini aslo kitobsevarlikka yo‘ymaslik kerak. Inson birovda ko‘rgan asariga haddan tashqari mehr qo‘ygan taqdirda uni egasidan so‘rab olib o‘qimog‘i va, albatta, qaytarib bermog‘i shart. To‘g‘ri, o‘g‘irlangan adabiyotdan olingan manfaat yoki ilm harom bo‘lib qolmaydi. Shunday bo‘lsa-da, bu ish mutlaqo nojoizdir. O‘zganing mulki hisoblangan har qanday narsani uning ijozatisiz olish va foydalanish g‘asb hisoblanib, bu so‘z biror narsani egasidan zulm bilan tortib olish ma’nosini bildiradi.

Ko‘pni ko‘rgan keksalarimiz kishining moliga nazar solma, deydilar. Chunki hamma egrilik ko‘zingga yaxshi ko‘ringan narsaga havas bilan qarashdan boshlanadi. Havasni jilovlay olmaslik esa ochko‘zlikka, ochko‘zlik o‘g‘rilikka undaydi. O‘g‘rilik ham shariat, ham dunyo qonunlarida jinoyat hisoblanadi. Shunday ekan, hatto o‘zganing mulki bo‘lgan kitoblarga havasni ham jilovlamoq darkor.

Muhayyo RUSTAM qizi

MUSHOHADA

AMERIKA JODUSI



Yoki grin-karta lotereyasi zamonaviy qullik bozori hujjatimi?

Grin-karta nimasi bilan dunyo aholisining e'tiborini tortmoqda? Nima uchun AQSh hukumati bu kabi uzoq yillik malakaga ega loyihani izchillik bilan davom ettirmoqda? Grin-karta yutug'ini qo'lga kiritgan o'zbek(lar)ning taqdiri Amerikada qaysi nuqtadan boshlanadi? Grin-karta lotereyasi sohiblari Amerika fuqaroligini qo'lga kirita oladimi? Arosatdagi fuqarolik odamlarga qanchaga tushmoqda?

Amerika ba'zilar uchun orzular mamlakati ekani bor gap. Chunki "Amerikaga ketyapman" degan gapni eshitganda odamlar hech bo'lmaganda "O'h-ho'o'o'" deya hayratga tushadi. Har yili grin-karta o'ynaladigan oktyabr-noyabr oylari intiqlik bilan kutiladi. So'rovnoma o'tkazganimizda shu ma'lumot aniq bo'ldiki, bir odam hatto o'n to'rt bor grin-karta lotereyasini o'ynagan. Va nihoyat, o'n to'rtinchi urinishda yutuqni qo'lga kiritgan. Yutuq chiqib qolganda esa, har qanday oliy ma'lumotli yoki yuqori lavozim egasi bo'lganlar ham ummon ortiga otlanadi. Ular orasida atoqli san'atkorlar-u taniqli jurnalist va aktyorlar ham borligi fikrimizning dalilidir.

Rivojlanmagan mamlakatlar fuqarolari uchun Amerikada doimiy yashash huquqini beruvchi ushbu grin-karta loyihasi 1940-yili ta'sis etilgan bo'lib, yildan-yilga rivojlandi, keng yoyildi, ohanrabo kabi boshqa millat vakillarini o'ziga jalb etdi. Bir savol paydo bo'ladi, o'z fuqaroligini bermaydigan (grin-kartaning tartib-qoidasida bu qat'iy belgilangan), faqat o'qish, ishlash va yashash huquqini tuhfa etuvchi ushbu lotereyadan Amerikaga nima naf? Ya'ni, odamlar grin-karta yutadi, Amerika nima yutadi? Aslida kashf etilishi muhojir sayyoh badaliga tushgan ushbu mamlakat har yili 55 mingdan ortiq kishiga grin-karta yutug'ini tuhfa etadi.

Darhaqiqat, dunyoning turli davlatlaridan kuchga, g'ayratga to'lgan yoshlarni Amerikaga jalb qilish, ishchi kuchini ko'paytirish, kelgan muhojirlarning ham kuchidan, ham bilimidan foydalangan holda Amerikaday aristokrat mamlakatning nufuzini yanada oshirish bu loyihaning bosh maqsadidir. Axir, Amerika asli kelib chiqishi italiyalik ispan millatiga mansub Xristafor Kolumbning sa'y-harakatlari bilan kashf etilgani tarixiy haqiqatligini inobatga olsak, bu mamlakatning ovro'pacha beshigini avval boshdan muhojirlar tebratgani ayon bo'ladi.

Bugun Amerika aholisi uch yuz o'ttiz uch milliondan ortiq deb belgilangan bo'lsa, uning sakson to'rt milliondan ko'prog'ini muhojirlar tashkil etadi. O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida yoritilgan materiallarga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2010-yildan 2019-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida 27 ming 563 nafar o'zbekistonlikka grin-karta berilgan. Xususan, 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra 5000 dan ortiq o'zbek ushbu o'yinda yutgan, 3100 nafari viza olishga muvaffaq bo'lgan.

Albatta, Amerikada yashash huquqini qo'lga kiritgan orzumand fuqaro o'zida yo'q shodlanadi, afsonaviy o'lka tomon yo'lga tushadi, orzular ro'yobidan mast bo'ladi. O'zini afsonaviy Susambilga oyog'i yetgan kabi his qiladi. Biroq grin-karta – hamma qiyinchiliklar shu nuqtada tugaydi, deganimi?! Amerika faqat baxt va shodlik va'da beruvchi mamlakatmi, degan savollar odamni o'yga toldiradi.

To'g'ri, Amerikaga borgach, u yerda hech kimni ochil dasturxon-u tekin uchar gilamlar kutib turgani yo'q. Chunki Amerika departamenti faqat u yerda yashash huquqini beradi, uy-joy, ish va boshqa imtiyozlarni tuhfa etmaydi. Turli millatlar, turfa madaniyatlar jamlangan mamlakatda ishlash, o'zligini saqlab qolish oson emasligi ham kunday ravshan. U yerda uzoq masofaga yuk tashuvchi haydovchi, farrosh, kutubxonachi, tikuvchi, ishchi, sotuvchi, keksalarni parvarishlovchi, quruvchi, oshpaz bo'lib ishlayotgan hamyurtlarimiz bor. To'g'ri, ular AQShday iqtisodiy qudratli mamlakatda O'zbekistonda ishlab topgan oylik maoshi bilan solishtirganda ko'proq topayotgan bo'lishi mumkin. Qolaversa, u yerga ketganlarning fikricha, sayyohlik malakasi shakllanadi, yurt ko'radi, odam taniydi.

Lekin bir savol odamni o'ylantiradi: har yili grin-kartani qo'lga kiritib, AQShga otlangan necha minglab oilalar farzandlarining taqdiri, ularning kelajagi nima bo'lyapti? Ketganlarning hammasi ham farzandlarini o'zbekligiga, o'z tarixiga, tiliga, madaniyatiga mehr-u muhabbat bilan tarbiyalay oladimi?

2015-yili Amerikada xalqaro yozuvchilar dasturida ishtirok etganimda bir necha o'zbek oilalarining farzandlari o'zbek tilini bilmasligidan nolib gapirgan, menga Amerikada qolib, o'zbek oilalarining farzandlariga o'qituvchilik qilishimni taklif qilishgan edi. Tabiiyki, qabul qilmaganman, yurtga qaytganman. Bu borishda ertaga tilni, o'zbekligini unutgan na amerikalik, na o'zbekistonlik bo'lgan gibrid bir millat dunyoga kelmaydimi? Nima bo'lganda ham genlarning o'z tomirlaridan olislashuvi, madaniyatlarning, ma'naviy qadriyatlarning mo'rtlashuvi taraqqiy etishi bor gap.

Demak, bugungi kungacha taxminan 30 mingdan ortiq hamyurtimiz "sehrli diyor"da yashayotgan ekan, xo'sh, ularning ahvoli-ruhiyasi qanaqa, degan savol odamni o'ylantiradi. Ularga "sim-sim" eshiklari-ku ochildi, bu bilan ular o'z nafs karvonlarini orzusidagiday qondirishga ulgurdilarmi? Hamyurtlarimiz pul hamma muammoni bartaraf eta olmasligiga amin bo'lishganmi? Aks holda AQShda istiqomat qilayotgan qanchadan-qancha odamlarimiz hayotida ko'ngilsizliklar, fojiali oqibatlarga olib kelgan falokatlar ro'y bermagan bo'lardi.

Xususan, 2024-yilning mart oyida Sarvar Ollaberganov sobiq xotini Durdona Sultonovani to'pponcha bilan otib o'ldirgan, ikki nafar farzandi esa yetim qolgan. Er-xotin ikkovi ham Toshkentdagi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetini tamomlaganligi ma'lumotlar orqali ochiqlandi.

Xuddi shu kabi yana bir qayg'uli holat mart oyida ro'y bergan edi. Nyu-York politsiyasi qirq olti yashar o'zbek millatiga mansub Jamshid Ne'matovni otib o'ldirgan. Ne'matov 8-mart kuni turmush o'rtog'i Amirani pichoqlagach, yetib kelgan politsiyaning ogohlantirishiga qaramasdan ayoliga pichoq tiqishda davom etgan va natijada politsiya o'qi tufayli u hayot bilan vidolashgan. Ayol esa shifoxonada jonlantirish bo'limiga yotqizilgani aytiladi.

Xo'sh, bu kabi o'ta uqubatli voqealarni qanday izohlash mumkin? Qolaversa, bu kabi holatlar nafaqat Amerikada, balki chetda yashayotgan aksariyat vatandoshlarimiz orasida ham ro'y bermoqda. Modomiki, vatandoshlarimiz mo'may daromad izlab Amerikaga ketgan ekan, daromadni-ku topmoqda, biroq baxtni, xotirjamlikni, osoyishtalikni topa olishyaptimi? Buning nomi to'qlikka sho'xlikmi, o'ziga xon, o'ziga beklikmi va yoki demokratiya jodusimi bu?

Shuningdek, keyingi yillarda Meksika orqali AQSh chegarasini noqonuniy buzib kirayotganlar va suv yo'li orqali o'tayotganda timsohlarga yem bo'lgan o'zbeklar haqida ijtimoiy tarmoqlarda xabarlar tarqaldi. Aynan yosh shoira qizning Amerikaga Meksika orqali noqonuniy ravishda kirib, tikuvchi bo'lib ishlayotgani haqida ma'lumotga egamiz.

O'zbekning nima uchun chet elga ishtiyoqi bunchalar baland? Nega odamlar yoppasiga Amerika xumoriga chalingan? Vatandoshlarimiz bu qutqudan qutulib o'z vatanimizni, o'z yurtimizni rivojlantirish haqida o'ylaydigan fursat yetib kelmadimi?

Axir, o'tgan asr boshlarida turkistonlik millat oydinlari jahon kezgani, Ovro'pa-yu Osiyoni tirikchilik dardida emas, ma'rifat hasratida oralab, millat dardiga darmon izlagani hammamizga ma'lum-ku. Jadid bobolarimiz Behbudiy, Cho'lpon, Fitrat, Hamzalarning chet el taassurotlari bitilgan yo'lnomalari nahotki bizga saboq bo'lmasa. Germaniyaga o'qishga jo'nab ketgan yetmish nafar talaba yurtda ommaviy repressiya shitob davom etayotganiga qaramasdan o'z yurtiga qaytib kelgani ko'p narsani anglatadi, menimcha.

Amerikacha "uchburchakli qullik tizimi" ikki yuz yildan ortiqroq vaqt davom etib, 1865-yilgacha, ya'ni AQSh prezidenti Avraam Linkoln davrigacha hukm surgani yaxshi ma'lum. Lekin bugun tobora muhtasham, tobora sehrli tus olayotgan grin-karta lotereyalari qullik bozorining zamonaviy ko'rinishi emasmi, degan o'y kechadi kishi ko'nglidan. Bu mamlakatni boyitayotgan, qudratini ma'lum darajada belgilayotgan, mavqeini ko'tarayotgan vositalardan biri grin-karta lotereyasi emasmi? Qullik bozorlarining faqat tarixda qolgani rost bo'lsin, ilohim!

Go'zal BEGIM

TILBILIM



YUZIM SHUVUT BO'LDI

Uyaldim, sharmanda bo'ldim, aybim ochilib qoldi, odamlar ko'ziga qarolmay qoldim, xijolat bo'ldim.

"Yuz shuvut bo'ldi", deganda taxminan yuqoridagi ma'nolarni tushunamiz. Xo'sh, "shuvut" o'zi nima? "Shuvut" (ba'zi shevalarda "chuvut") so'zi faqat "yuz shuvut" iborasida saqlanib qolgan va bizgacha yetib kelgan. Biroq bu so'zning o'zi alohida qanday ma'noga egaligi, kelib chiqishi haqida hozirgi lug'atlarda ma'lumot yo'q. Xo'sh, yuz shuvut bo'lish holati qanday kechadi: deylik, yuz qizarib ketadi yoki sharmandalik darajasi o'ta kuchli bo'lganda kishi yuzi ko'karishi, bo'zarishi, hatto oqarishi mumkin. Xullas, hayajondan kishi yuzida rang o'zgarishi sodir bo'ladi.

Aslida, "shuvut" ("chuvut") juda qadimiy so'z bo'lib, ma'nosi "rang" ekanligi haqida bobomiz Mahmud Koshg'ariy "Devon-u lug'otit-turk"da shunday ma'lumot beradi: "qïzïl ǰo'vo't – qizil rang, al ǰo'vo't – ol rang, kök ǰo'vo't – ko'k rang, jashïl ǰo'vo't – yashil rang, sarïg' ǰo'vo't – sariq rang, zirnix (oltingugurt kukuni). Bilgilki, ǰo'vo't (chuvut) so'zi bu ranglarning hammasi uchun umumiy so'z bo'lib, so'ng unga ayrim ranglarni anglatuvchi so'zlar qo'shilib, farq qilinadi" (DLT.III tom. T.: "Fan". 1963. 176-bet).

Demak, qadimgi turkiyda "chuvut" ham "tus" kabi "rang" ma'nosini bildirgan. Keyinchalik ko'pgina turk lahjalariga forscha "rang" o'zlashgan, ammo "chuvut" unutilgan, faqat "yuz shuvut"da saqlanib qolgan.

Abduvohid HAYIT

QADRIYAT

QISHLOQ QABRISTONI



1979-yili maktabni bitirib, Toshkent davlat universitetiga hujjat topshirgach, imtihonlarga tayyorlanadigan kunlar orasida Chig'atoy qabristonini ham ziyorat qilishni rejalashtirdim. O'sha paytlarda "Axborot" televizion dasturida mashhur insonlarning vafoti haqida xabar berilganida marhum Chig'atoy qabristonida dafn etilishi ham aytib o'tilardi.

Serdaraxt, yo'laklari asfalt qilinib, ikki chetida gullar ekilgan qabristonning mashhur kishilar uchun ajratilgan qismida G'afur G'ulom, Shayxzoda, Oybek, Abdulla Qahhor kabi adiblar, Abror Hidoyatov singari aktyorlar, dongdor akademiklarga bag'ishlangan yodgorliklar archalar soyasida, odam bo'yi atirgul butalari qurshovida turar edi.

Ziyorat chog'ida qishlog'imiz qabristoni esimga tushdi: hammayoqni yantoq, shuvoq, tizza barobar xas-xashak bosib yotgan, oyog'ing ostidan ilonlar, kaltakesaklar har tomonga qochadigan ikki-uch gektarlik fayzsiz hudud... Sug'oriladigan qismida o'riklar ostiga beda ekilgan, mayitlar qo'yiladigan qismida biror daraxt tugul, buta ham yo'q.

Ilgari qishlog'imiz kichikroq edi, yilda uch-to'rtta janoza bo'lib turardi. Shu siyrak janozadan keyin o'tadigan marhumning yettisi, qirqi, yili, albatta, o'ta yig'i-sig'ili bo'lardi. Uyimiz adir ostida edi, tong saharlab ko'tarilgan yo'qlov-yig'ilar aks-sado berib, adirlar ichida janoza bo'layotgandek tuyulib, vahima uyg'otardi.

Harbiy xizmatdan qaytganimda onam vafot etgani uchun deyarli har kuni mozorimizga borishimga to'g'ri kelgan. Chunki volidamning qabri boshida xuddi Chig'atoydagi singari atirgul ekkan edim. Gullar qurib qolmasligi uchun ishdan qaytgach yoki tong saharda bir chelak suv ko'tarib o'sha yoqqa yo'l olardim. Tikon-u ilonlardan himoyalanish uchun oyog'imga etik kiyib olishimga to'g'ri kelardi. Mozor shayxi bir kuni qabrlar oralab suv tashiyotganimda o'lganlarni oyoqosti qilish yaxshimasligini aytib, ekilgan gullarimni o'zi sug'orib turishga va'da berdi. Qabr ustidagi qurigan xas-xashaklarni olib tashlaganimni ham ma'qullamay, go'r ustida chiqqan hamma narsa shu marhumniki, dedi. Bunday qarash o'sha paytlari urf bo'lgani uchun qabrlarning ustini qurigan o't-o'lan bosib yotardi. Tosh qo'yilgan qabrlar kamdan-kam topilar, asosan tepasiga eski chinni, sopol tovoq, shokosa to'nkarib qo'yilgan, bir cheti uchgan choynaklarning burniga yasama gullar tiqib qo'yilgani bois bir qarashda qabriston eski-tuski idishlar makoniday taassurot uyg'otardi.

Mozorning eski qismidagi go'rlar deyarli cho'kib, o'pirilib tushgan. Eng boshida biror yuz yillar burungi ikki ko'hna qabr uzra marmar va pishiq g'ishtdan tiklangan sag'ana nurashga yuz tutgan, qabrlar kimga tegishliligi yozilgan arabcha imloga birovning tishi o'tmasdi.

1985-yili mozorlarni obod qilish tashabbusi boshlanib, xalqni hasharga chaqirishdi. Biz ham qo'llarda o'roq, ayri bilan eski qabrlar uzra yurib, yantog'-u shuvoqlarni o'rib, qurigan xaslarni uyib ketaverdik, ortdagilar ularni tashqariga tashishdi. Mozorning adirga tutash qismini daraxt, jangal bosib ketgandi, qurigan shox-shabbalarni tozalash ham kun bo'yi davom etdi.

O'shandan beri o'tgan yillar mobaynida qabriston atrofi devor bilan o'raldi, chetan o'rniga darvoza o'rnatildi, turli ma'rakalar o'tkazish uchun oshxona, katta ayvon, uylar qurildi.

Odamzodning shu sur'atda ko'payib borishi turarjoy taqchilligini keltirib chiqaradi. Qabristonlarga sug'orma, tekis joy ajratish qiyinlashadi. Tog' qishloqlarida azaldan qabriston uchun adirlar yonbag'ri tanlanadi. Ilgari shaharlarda ham xilxona – oilaviy qabr joylarini ijaraga olish urf bo'lgan. Eski mayitning so'ngaklari sopol xumga yig'ilib, sirtiga kimniki ekani yozilar va xilxonaning tokchasiga qo'yilar, uning o'rniga nabirayu abirasi qo'yilaverardi.

1970-yillari adirda qo'riq yer o'zlashtirilayotgan paytda buldozer kattagina sopol xumning og'zini ochib ketadi. Bu xumni kovlab olishganida, ichida uch ming yil burun o'tirgan holida dafn etilgan marhumning so'ngaklari chiqdi. Uning yonidan turli ro'zg'or anjomlari, tangalar topildi. Bunday xumlardan yana anchagina aniqlandi. Bu joy qadimgi davrda qabriston bo'lgan. Sopol-u ro'zg'or anjomlari, tangalardan bu joylarda bir paytlar kattagina shahar bo'lganini taxminlasa bo'lardi.

Ustoz adib Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" turkumiga kirgan "Dahshat" hikoyasi qabriston bilan bog'liq. Qabristonga bir o'zi borib, o't yoqib, qumg'onda suv qaynatib, choy damlab kelish evaziga qari eridan taloq olishga jazm qilgan yoshgina juvonda otning kallasidek yurak bo'lishi yoki hushi o'zida bo'lmasligi kerakday.

Yana bir o'tmish rivoyati shoir Hofiz Sheroziy bilan bog'liq. Uning dastlabki yozgan g'azallari ko'pchilikning tanqidiga sabab bo'lardi. Hali uylanmagan yosh shoir o'tib ketgan ustozining qabri boshiga boradi-da, omadsizligidan nolib, ustozining haqqiga duo qiladi va beixtiyor ko'zi ilinadi. Tushida ustozini ko'radi va uning talabiga ko'ra yangi yozgan g'azalini o'qib beradi. Navqiron shoir uyg'onib ketib, tun cho'kkanini ko'radi va uyida xavotir olib o'tirgan onasining oldiga yuguradi.

Ertasi kuni u yana o'zini masxara qilmoqchi bo'lgan izdihom qarshisida kecha tushida yozgan g'azalini o'qib beradi. Bu galgi g'azal shu qadar pishiq-puxta va go'zal ediki, oqibatda olomon uni she'r o'g'risiga chiqaradi. Hofizning keyingi g'azallari ham tobora kamol kasb eta boradi va olamga yangi bir zabardast shoir kelganidan darak beradi. Ulug'lar ziyorati ana shunday nekbinlikka sababchi bo'lsa qanday soz: "Go'riston gulistondir, Muqimiy aytgan misol" (Abdulla Oripov).

Xulosa qilib aytganda, qabristonlar kishiga umr g'animat, o'lim muqarrar ekanligini eslatish bilan birga, uni yaxshi ishlar, yangi ijodiy rejalarga undaydi. Umuman, qabriston ham o'z girdini o'rab turgan devor tashqarisidagi hayotning bir qismi hisoblanadi. Tashqaridagi hayot, turmush obodligi qabristonda ham aks etishi tabiiy. Hozirgi qabristonlarimiz tobora obod bo'lib, dorilomon davrimiz ko'zgusiga aylanib bormoqda. Har yili Xotira va qadrlash kunida bu joylar odamlar bilan gavjum bo'lib, yangi nihollar, gullar ekiladi. Endilikda bu maskanga avvalgidek qo'rquv bilan emas, hayotga muhabbat ruhi bilan qadam qo'ymoqdamiz.

Olloyor BEGALIYEV

ABDULLA QODIRIY TAVALLUDINING 130 YILLIGI

“AHLI VIJDON” HASRATI

O‘zbek xalqining buyuk yozuvchisi Abdulla Qodiriy tavalludi Turkiston diyorida siyosiy-tarixiy, madaniy-ma’rifiy sohalarda jiddiy evrilishlar kechayotgan davrga to‘g‘ri keldi. Bo‘lajak adib millat oydinlari bo‘lgan jadidlar uchun ma’rifat va mafkura sahnasi kurash maydoniga aylangan muhitda o‘sib-ulg‘aydi. Jadidlarning milliy matbuot va jurnalistikani shakllantirish, teatr san’atini millat “oyina”siga aylantirish, ta’lim islohoti, boshqaruvga mahalliy kadrlarni yetkazib berish, milliy armiyani bunyod etish bilan bog‘liq dasturi Abdulla Qodiriyning ko‘z o‘ngida shakllandi. Shu tariqa Qodiriy, avvalo, jadid g‘oyalari ta’sirida adabiyot maydoniga kirib keldi va dastlabki ijodiy namunalarida ma’rifat targ‘ibotchisi sifatida gavdalandi.

Yozuvchining ijodiy konsepsiyasi mavzu ko‘lamiga ko‘ra ikki yirik yo‘nalish asosidan tarkib topgan. Birinchisi, ijtimoiy-iqtisodiy islohotparvarlik, ikkinchisi, diniy xurofotga qarshi kurash masalasi. Uning dastlabki she’ridan tortib, to yirik janrdagi asarlarigacha mana shu ikki yo‘nalish oralig‘ida bo‘y ko‘rsatadi. Adibning birinchi maqolasi 1914-yil 1-apreldagi “Sadoyi Turkiston” gazetasida, “Toshkent xabarlari” ruknida “Yangi masjid va maktab” nomi bilan chop etilib, unda bir boyning masjid yoniga “Usuli jadid” maqomidagi uch xonali oynavand maktab qurib bergani aytiladi. Jadid usulidagi maktabni qurib bergan boyni matbuotda e’tirof etish, o‘z navbatida reklama – targ‘ib vazifasini bajargan. Va bu yo‘l jadidlar tomonidan qo‘llangan samarali usullardan biridir. Bu kichik xabar oddiy axborot bo‘lib qolmasdan, uning mohiyatida millat sarmoyadorlarini shunday ezgu ishlarga targ‘ib-tashviq qilish maqsadi yotadi.

Yozuvchining 1915-yilda yozgan “To‘y” nomli she’rida millatni chalg‘itayotgan muammolar haqida mulohaza yuritiladi. (“Sadoyi Turkiston”, 1915-yil 20-mart, 64-son). Eng qizig‘i, she’rda muallif muammoga nafaqat tanqidiy munosabat bildiradi, balki uni barataraf etish yo‘llarini ham ko‘rsatishga harakat qiladi. Qodiriyning dastlabki ijodiy namunalarida maktab va to‘y masalasiga alohida diqqat qaratilgani bejiz emas. Bu hol uning jadidlar g‘oyalari bilan hammaslak bo‘lganini ko‘rsatadi.

She’rning har bir baytida zamonaning og‘riqli muammolari hajv yo‘li bilan ko‘rsatib beriladi. Aslida, to‘yga, to‘g‘rirog‘i, ortiqcha dabdabali marosimlarga millat ravnaqiga to‘sqinlik qilayotgan muammo sifatida yondashish millat faollariga xos ijtimoiy-ma’rifiy qarashning o‘ziga xos ko‘rinishi edi. To‘y masalasi jadidlar nazdida, eng og‘riqli va millatni zalolatga yetaklovchi muammo sanalganligini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Holbuki, bu mavzu bugunga qadar dolzarblik ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Abdulla Qodiriy davrning yetakchi g‘oyalarini she’rlari orqali aks ettirishni ma’qul bildi. E’tibor beriladigan nuqta: muallif dastlabki badiiy ijodini jadid kayfiyatini aks ettiruvchi she’rlar yozish bilan boshlaydi. U she’rning badiiy-estetik qiymatini hisobga olmaydi, balki tarbiyaviy jihatini muhim sanaydi. She’rga g‘oyani aks ettiruvchi vosita sifatida yondashadi. Bu jihatlar hali muallifning badiiyat nuqtai nazaridan tajribasizligi bilan izohlanib, ma’rifatparvarlik hissi ustivorlik qilganini ko‘rsatadi.

To‘y na diniy, na milliy marosim, mahalliy xalq shu yo‘lda bor-budini sarflab, riyoga berilishi, ortiqcha tomoshaga o‘chlik qavmni halokat yoqasiga olib borishi jadidlarni tashvishlantirgan. Ularni qiynagan muammo bugun ham yechimini topa olmayotgani hali-hanuz millat tafakkurida ma’naviy bo‘shliq borligidan darak beradi.


She’r matniga diqqat qaratilsa, yozuvchining maqsadi oydinlashadi. “Amr etubdurmi bizg‘a Qur’on to‘y”, “Mundayin ishlar shar’imizda yo‘q”, “Kelingiz, do‘stlar, din qarindoshlar”, “Tashlasun bo‘lsa gar musulmon to‘y”. Muallif mazkur masalaga diniy nuqtai nazardan yondashadi, ya’ni bid’at va johillikni qoralaydi. Shariat buyurmagan ishlarni qilish, xurofotga berilish natijasida el ilm-ma’rifatdan to‘silishini muallif kichik she’r bag‘riga singdirib yuborgan. Muallif bunday ortiqcha havaslardan millatni “Qur’on amri” qutqarishini, “aqllik kishi” va “ahli vijdon” bunday illatlardan saqlanishi lozimligini ta’kidlaydi. “Aqllik kishi” va “ahli vijdon” tushunchasi yozuvchi ijodiy konsepsiyasida muhim o‘rin tutadi. Qodiriyga ko‘ra diniy va dunyoviy bilimga ega bo‘lgan odam tugal taraqqiyparvar sanalgan. Shunday nuqtalarda muallifning nafaqat milliy, balki din qayg‘usi bilan masalaga yondashganini ko‘rish mumkin.

Ijodkorning “Fikr aylag‘il” she’rida ham to‘y masalasiga murojaat qilinadi: “Yer sotarlar elda necha to‘y bajo etmak uchun,

Chunki bid’atin yo‘lida ham fidodur jonu tan”. Yer o‘zbek xalqida vatan tushunchasiga tenglanadi. Muallif hoy-u havas yo‘lida hatto vatanidan kechayotgan millatdoshlarni fikr aylashga chaqiradi. Mahalliy aholining savodsizligi va johilligi ortida shunday ortiqcha chiqimlarning kelib chiqishini qoralaydi. “O‘rtadan chiqsa agar millatni yaxshi suyguchi,

Biz ani dahriy sanab, to‘fangcha birla otamiz”, deya olomonning umum saviyasi va davr kayfiyatini ochib beradi. Mazkur misrada yangilik va eskilik orasida turli tomonga ajralib, tobora zaiflashib borayotgan millatning ahvoliga ishora bor. Yurt istiqboli xatarda qolayotgan pallada odamlarning maishiy tashvishlar bilan ovora ekanligi kinoya orqali ochib beriladi. Savodsizlik orqasida ommaning bid’atga berilishini ma’rifat bilan “emlab”, millatni fikriy uyg‘oqlikka da’vat etadi. “Kelingiz, yoshlar, ziyolilar, bu kun g‘ayrat qiling, Uxlaganlarni agar qodir esak, uyg‘otamiz.”

“Ahvolimiz”, “Millatimga bir qaror” she’rlarida ham millatni jaholatga yetaklayotgan illatlar fosh qilinadi. “Joyi kelgan chog‘ida vijdonni pulg‘a sotamiz”, “Jaholat cho‘l sahrosiga minba’d sabzavor o‘lsun”, “Bu kun ilmning bo‘yi birlan dimog‘lar mushkibor o‘lsun”, “Qaysi fosiq, qaysi johil, qaysisi bo‘ldi chapan?”, “Bachchag‘a kokil solib, oh-voh ilan o‘ynotamiz” kabi misralarda ona



Turkistonni azoblab kelayotgan yiringli yaralar ochib beriladi. Din ahkomlariga bo‘ysunmaslik, johillik, ilm-ma’rifatdan yiroqlashuv, bachabozlik, nashavandlik kabi illatlar nishonga olinadi. Har bir satrda millatni tanazzulga yetaklovchi global xarakterga ega muammolar yoritib berilgan. Mazkur muammo keyinchalik adibning yirik janrdagi asarlarida konseptual ahamiyat kasb etib, roman strukturasida alohida sujet yo‘nalishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Kalvak maxzum, Abdurahmon, Toshpo‘lat tajang obrazlarining tub ildizi uning dastlabki she’rlarida ilgari surilgan tezislar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi kunday ayon.

Yozuvchining ijodiy bisotida she’r ko‘p emas, sanoqli, ularning nomlanishida ham o‘zaro uyg‘unlik ko‘zga tashlanadi. “To‘y”, “Ahvolimiz”, “Millatimga bir qaror”, “Fikr aylag‘il” deb nomlanib, xalq tafakkurining tadrijiy takomili nazarda tutilgan yoki muallif orzusi bo‘lgani, ehtimol. Umummaxrajda Turkistonning ahvolidan kuyinish, dardiga malham istash hasrati jamlangan. “Qodiriy nazdingiza o‘z hasratidin so‘yladi,

Ayb etub qilmang haqorat,
muhtaram ahli vatan”.

Uning she’rlaridagi g‘oya asta-sekin nasriy asarlariga ham ko‘chib o‘tadi. “To‘y” she’ridagi g‘oyaviy niyat “Baxtsiz kuyov” dramasida davom ettirilib, keyingi asarlarida muammo ildizlariga yanayam chuqurroq razm solinadi. Muallifning “Baxtsiz kuyov” nomli asari 1915-yilda yozilib, “Turkiston maishatidan olingan to‘rt pardalik foji’a” deb nomlangan. Qodiriy shunday yozadi: “1913-yillarda chiqg‘an “Padarkush” pesasi ta’sirida “Baxtsiz kuyov” degan teatr kitobini yozub yuborg‘animni o‘zim ham payqamay qoldim”.

Asar voqealari Solih ismli yigitning uylanishi voqeasi asosiga quriladi. Boydan qarzga pul olib, vaqtida to‘lay olmagan kuyov Solih va kelin Rahima ruhiy tushkunlik oqibatida o‘z joniga qasd qiladi. Asar yoshlarning fojiali o‘limi bilan yakunlanadi. Qurbon bo‘lgan yoshlar taqdiri millat kelajagi bilan chambarchas holda ko‘rsatilib, to‘y baxtga yetaklovchi omil emas, ma’naviy inqirozning belgisi sifatida yoritib beriladi.

O‘zbekiston Qahramoni, adabiyotshunos olim Ibrohim G‘afurov yozuvchi ijodida to‘y mavzusiga yaqin qiziq mulohazalarni bildirib o‘tgan: “Abdulla Qodiriy romanlarida barcha voqealarning markaziga uylanish tugunini qo‘yadi. Barcha voqealar, tarixlarning boshida shu tugun turadi. Tarixning barcha kir va olijanob yo‘laklariga shu tugun orqali kiriladi”.

Nazarimizda, adib romanida nikohning muqaddasligi va johillik oqibatlarini badiiyat san’ati orqali chizadi. Yurt istiqboli qayg‘usi va hokimiyatning qo‘ldan ketishi, diniy-milliy kamsitilish adibni yirikroq ko‘lamda asar yozishga undagan.

Yozuvchi she’rlari vositasida jamiyat iqtisodini o‘nglash uchun avvalambor ruhoniyatni, ma’naviyatni boyitish lozimligini ta’kidlaydi. To‘y – diniy yoki milliy marosim emas, balki xalqni chalg‘itish uchun xizmat qilayotgan bir illat ekaniga e’tibor qaratadi. Turkistonni bu kasofatdan ozod etmoq uchun bolalarimizni diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor etmog‘imiz lozim, degan xitob buyuk adibning butun asarlari mag‘ziga singdirilgan.

Sanobar TO‘LAGANOVA
adabiyotshunos

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

QATAG‘ON QURBONLARI

Fayrushin Orif – 1870-yili Kuybishev o‘lkasi, Aksakova qishlog‘ida tug‘ilgan. “Milliy sho‘ro” tashkiloti a’zosi bo‘lib, Buguruslan uyezdida qo‘zg‘olonchi ruhoniy va quloqlar to‘dasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, aholi orasida sovetlarga qarshi tashviqot yuritganlikda ayblangan. 6804-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 16-avgustdan hisoblangan.

Po‘latov Qori Yo‘ldosh – 1890-yili Turkmanistonning Kerki shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti markazlashgan rahbarligining a’zosi sifatida aksilinqilobiy kadrlar tayyorlash bo‘yicha targ‘ibot olib borganlikda, Germaniyadagi josus bilan aloqada bo‘lganlikda ayblangan. 4265-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan.

Izmoshayev Islomsho – 1892-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti Buxoro bo‘limining faol a’zosi. Mazkur tashkilotning topshirig‘i bilan tashqaridagilar hamda F.Xo‘jayev bilan yaqindan aloqada bo‘lganlikda ayblangan. Hibsga olingan vaqtda “O‘zbekbirlashuv”da maslahatchi bo‘lgan. 4609-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 10-avgustdan hisoblangan.

Ziyovuddinov Aminjon – 1890-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotining topshirig‘iga ko‘ra qishloqlardagi tashkilot a’zolari bilan aloqa bog‘lash uchun borganlikda, ular bilan yig‘ilishlar o‘tkazib, tashkilot rahbarlari ko‘rsatmalarini yetkazganlikda ayblangan. Hibsga olingan vaqtda ilmiy xodim bo‘lgan. 5247-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 21-avgustdan hisoblangan.

Maqsudov Muzaffar – 1895-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotning Buxoro filiali a’zosi bo‘lgan. F.Xo‘jayev va boshqalar bilan yaqin aloqada bo‘lganlikda ayblangan. 4798-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 25-avgustdan hisoblangan.

Tagirov Ibrohim G‘aysiyevich – 1888-yili sobiq Ulyanovsk guberniyasidagi Ostrov qishlog‘ida tug‘ilgan. “Turk odam markaziyati”, “Milliy ittihod” va “Milliy istiqlol” tashkilotlarining a’zosi bo‘lgan. Matbuotda bir necha marta aksilinqilobiy bo‘htonlar bilan chiqqanlikda ayblangan. 4556-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 11-avgustdan hisoblangan.

Rumiy Sa’di – 1884-yili Qrimning Kerchen rayoni Mamat qishlog‘ida tug‘ilgan. Qrim millatchilarining aksilinqilobiy faoliyatida faol qatnashganlikda, “Milliy firqa” tashkilotida bo‘lganlikda, qrim-tatar millatchilari bilan bir qatorda aksilinqilobiy faoliyat yuritganlikda ayblangan.

Hibsga olingan vaqtda bog‘bon bo‘lib ishlagan. Jazo muddati 1917-yil 10-iyuldan hisoblangan.

Bilol Foiq – 1880-yili Qrimning Bog‘chasaroy shahrida tug‘ilgan. “Milliy firqa” qrim-tatar aksilinqilobiy tashkilotning a’zosi bo‘lgan. Jazodan qochib aksilinqilobiy faoliyatini yangilaganlikda ayblangan. Hibsga olingan vaqtda sovxozda qorovul bo‘lgan. Jazo muddati 1937-yil 10-sentyabrdan hisoblangan.

Qozi Said Eshonxo‘ja – 1881-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot a’zosi. Sudlangan, muddatini o‘tamay qamoqdan qochgan. Hibsga olingan vaqtda tabiblik bilan shug‘ullangan. Aksilinqilobiy, g‘alayonchi tashkilotning rahbari va tashkilotchisi sifatida doimiy ravishda targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan.

Hoji Nizomiddin Obidov – 1869-yili Qiziltepa rayoni Arabon qishlog‘ida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot a’zosi sifatida mag‘lubiyatchilik, ig‘vogarlik targ‘ibotini olib borganlikda ayblangan. 8 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Jazo muddati 1937-yil 12-avgustdan hisoblangan.

Hakimov Muhiddin – 1885-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq sarkori va bosmachilik harakati tashkilotchilaridan biri. Aksilinqilobiy guruh tashkilotchisi sifatida uyida kengash o‘tkazganlikda, mag‘lubiyatchilikka oid troskiycha targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Jazo muddati 1937-yil 9-iyuldan hisoblangan.


Sadriyev Ismoil – 1895-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq sarkori. Aksilinqilobiy kengash chaqirganlikda, uyushgan aksilinqilobiy harakatga da’vat qilganlikda ayblangan. Hibsga olingan vaqtda xizmatchi bo‘lgan. Jazo muddati 1937-yil 9-iyuldan hisoblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

MUTOLAA

ASR OSHGAN “GO‘ZAL YOZG‘ICHLAR”



XX asr avvalida jadid ziyolilari maorif sohasida joriy etgan yangilik va islohotlari bilan zamonaviy ta’limning tamal toshini qo‘yishdi. Bu davrda tayyorlangan darsliklar orasida “Go‘zal yozg‘ichlar” kitobi alohida o‘rin tutadi. Majmua bugungi kunda tuzilayotgan antologiyalarning ilk ko‘rinishi sifatida tarixiy davr adabiy muhiti va ruhini aks ettiradi.

“Go‘zal yozg‘ichlar”ga Elbek tartib bergan. Kitob 1923, 1925-yillarda ikki marta nashr qilingan. Elbek so‘zboshisida bu majmua o‘rta maktablarning “to‘rtinchi bo‘limi” uchun mo‘ljallanganini yozadi. Ammo “Go‘zal yozg‘ichlar” nafaqat maktab o‘quvchilari, balki milliy adabiyotini sevganlar uchun quvonchli voqea bo‘ldi. Elbek kitobning ikkinchi nashri so‘zboshisida shunday yozadi: “Go‘zal yozg‘ichlar” otli bu asarning bosilib maydong‘a chiqqonig‘a hali ko‘b vaqt o‘tmadi. Yolg‘iz ikkigina oy orasida olti ming nusxa bosilg‘on bir kitobning tarqab tugalishi chindan-da sevinarli bir ish! Biz bu kitobning ko‘b tarqalishin ko‘rar ekan, elimizning kitobga bergan ahamiyat va e’tiborlarini ko‘z oldig‘a keltirib, sevinmasdan o‘ta olmadiq…”


“Go‘zal yozg‘ichlar” hikoya, she’r, masal janrlarida yozilgan qirqqa yaqin ijod namunalarini o‘z ichiga olgan. Unga Cho‘lpon, Julqunboy, Elbek, Botu, V.Mahmud, A.Avloniy, G‘.Zafariy, Mirmulla, Saidali, Sh.Sulaymon kabi ijodkorlarning asarlari kiritilgan. Shuningdek, to‘plamda rus tilidan qilingan ayrim tarjimalar ham bor (“Binafsha”, “Qush qo‘shig‘i”). Majmuaning ikki nashri orasida muayyan farqlar kuzatiladi. V.Mahmudning “Toshloqlar”, “Qishloq”, “Ko‘klam kuni”, Saidalining “Buloq”, “Tabiatda bahor”, “Tabiatdan javob”, Fitratning “Qor” kabi asarlari o‘rniga “Ulug‘ bayram” (Choy), “Baynalmilal ashulasi” (muallifi ko‘rsatilmagan), “Marsiya”, “Paranji” (Botu), “Shifoli suv” (Subay), “Fol ko‘rguvchi chol” (Devayev) kabi boshqa asarlar kiritilgan. O‘zgarishlarni tuzuvchi Elbek shunday izohlaydi: “Bu kitob garchi darslik o‘laroq tuzilsa-da, hali bizdagi ilmiy kuchning ozlig‘idan kuchsiz ravishda yo‘qdan ko‘ra bor bo‘lib, darslik o‘rnin olib turadir. Bo‘lmasa, eksik o‘rinlari xeyli anchagina bor. Ikkinchi bosilishida yaxshig‘ina tuzatmak istagan bo‘lsaq-da, bir yoqdan shoshilinch safarga chiqib borishimiz, ikkinchi yoqdan “Davlat nashriyoti”ning tezdan bosishg‘a hozir ekanligi bizni juz’iy tuzatish bilan qanoatlanishka majbur etdi”. Darhaqiqat, “Go‘zal yozg‘ichlar”-da Elbek nazarda tutgan maktablarning “to‘rtinchi bo‘limi” o‘quvchilari yoshiga unchalik mos kelmaydigan ijod namunalari ham bor. Biroq o‘sha davr siyosati, ijtimoiy tuzum va muhit inobatga olinsa, bu to‘plam uchun Elbekdan juda katta mehnat va jasorat talab qilingani oydinlashadi. Chunki majmua Fitrat, Julqunboy, Cho‘lpon, Botu, A.Avloniy, G‘.Zafariy kabi asl xalqparvar jadidlarning asarlaridan iborat edi. Shuningdek, Elbek imkon qadar tabiat lirikasi va didaktik ruhdagi masal, hikoyalarni tanlashga harakat qilgan.

2023-yili, ya’ni oradan roppa-rosa 100 yil o‘tib “Go‘zal yozg‘ichlar” arabiy yozuvdan joriy yozuvga tabdil qilinib, “Zabarjad” nashriyotida qayta chop etildi. Bu nashrda asarlar tiliga xos xususiyatlar to‘la saqlab qolingani bilan zamonaviy adabiy tilga moslab bosilgan ko‘plab manbalardan farq qiladi. O‘ylaymizki, kitobxon uchun asl matnni o‘qish maroqli va o‘quvchiga Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon ijod qilgan zamon ruhini his qilishga yordam beradi.

Laylo HAYITOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek
tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

INSON O‘ZING

YANGIBINODAN CHIQQAN NOYOB ISTE’DOD



Ba’zan iste’dod va ilhomning qudratini idrok qilish, shuurga sig‘dirish imkonsiz. Shunday noyob qobiliyat egalari borki, ularning iqtidorini tahlil etishga aql va tafakkur o‘lchamlari ojizlik qiladi. Betxoven, Uilyam Boys kabi qulog‘i eshitmaydigan mashhur kompozitorlar necha asrki insoniyat idrokining markazida turibdi. Hal Lasko ko‘zi ojiz bo‘lib qolganidan keyin ham Microsoft Paint yordamida surat chizgan, Maykl Uilyams ko‘zi ojiz bo‘la turib bebaho rasmlar yaratgan. Bugungi hikoyamiz qahramoni ham o‘z vujudining adoqsiz imkoniyatlarini kashf etayotgan iste’dod sohibidir.

Yaqinda “Rossiya 1” telekanalida efirga uzatilgan “Noyob qobiliyatli odamlar” (“Удивительные люди”) ko‘rsatuvida ishtirok etgan hamyurtimiz Shohrux Suyunovning ikki qo‘l va ikki oyog‘idan birday foydalanib, o‘n besh daqiqa davomida noodatiy uslubda portret chizgani teleboshlovchilar va tomoshabinlarni hayratga soldi. To‘g‘ri, dunyoda oyoqlarida rasm chizadigan nogiron musavvirlar haqida bilamiz. Biroq, qahramonimiz Shohrux Suyunovning to‘rt muchasi sog‘lom, xususan, oyoq-qo‘llari ham.

Fanda har ikkala qo‘lini birvarakayiga ishlata oladiganlar “ambidekster” deb ataladi. Aslida butun dunyo aholisining bir foizdan kamrog‘i bu xususiyatga ega bo‘ladi. Shohrux esa faqat ambidekstergina emas. Mutaxassislarning fikricha, qo‘l-u oyoqning muvofiq iqtidori “ambiserebrallik” deyilib, bunda miyaning ikki yarim shari xuddi ikkita alohida miya kabi ishlar ekan. Ikki tomonlama odamlarning asosiy xususiyati shundaki, ular bir vaqtning o‘zida turli narsalar haqida o‘ylab, bir qancha narsalarni yarata oladi. Albatta, bunda ko‘z, oyoq va qo‘llarga katta bosim tushadi.

Iste’dod va ilhomning ilohiyligi yoxud ijod namunalarining shunchaki ko‘nikma, uzoq yillik mehnat hosilasi ekanligi borasidagi bahs-munozaralar hanuzgacha davom etadi. Hayratlanarlisi, qahramonimiz g‘ayritabiiy tarzda nafaqat ikki qo‘lida, balki oyoqlarida ham mo‘yqalam tutib, surat chizishni atigi uch oy oldin boshlagan. Uning aytishicha, ijtimoiy tarmoqda bir koreys rassomning qo‘l-oyoqlari yordamida asar yaratayotganini ko‘rib, bu tajribani o‘z tanasida sinab ko‘rmoqchi bo‘ladi. “Koreys rassomni kuzata turib, xayolimdan o‘zbeklar ham buni uddalay oladi, degan o‘y kechdi va buni isbotlashga harakat qildim”, deydi qahramonimiz. Internet tarmog‘ini kuzatib amin bo‘ldikki, butun dunyoda bunday noyob qobiliyat egalari nari borsa to‘rt-besh nafarni tashkil qilarkan. Biroq ularning orasida o‘n besh daqiqada butun boshli portretni chizadigan rassom hanuzgacha topilgan emas. Biz tanishgan manbalarda bu kabi murakkab ish jarayoniga kamida sakkiz-o‘n soat sarflanishi aytilgan.

Yosh musavvir bunga qanday erishgani, o‘zidagi noyob mahoratning sir-sinoati haqidagi savolimizga shunday javob berdi: “Ijodimda hech qanday sir yo‘q. Asosan yo‘lda yurganimda vaqtim bekor ketmasligi uchun Rubik kubigini rangiga moslab terib yuraman. Bu qo‘l motorikalarini mashq qildirib, miya faoliyatiga juda yaxshi ta’sir qiladi, diqqatni kuchaytiradi. Men shunchaki Rubik kubigi yig‘ish malakamni rassomlik qobiliyatim bilan birlashtirdim. Hammasi chap qo‘limni ham birday ishlata olishimni bilganimdan so‘ng boshlangan. Shunda ko‘nglimda ikkita yumushni bir vaqtda bajarish fikri tug‘ilgan va qilib ko‘rganman. O‘ng qo‘limda rasm chizsam, chapimda Rubik kubigini zo‘r yig‘ardim. Biroq oyoq va qo‘llar yordamida rasm chizish jarayonida diqqatni jamlash juda qiyin bo‘ladi”.

Shohrux asosan hozir urf bo‘layotgan zamonaviy uslublar – Strit-art, Graffiti va Pop-art yo‘nalishlarida ijod qiladi. Bundan tashqari, noodatiy uslublarda portret chizish bilan ham shug‘ullanadi. Rassomning aytishicha, eng kichik ijodi barmoq izi kattaligidagi portret bo‘lgan. Yana ip orqali, minglab mayda odamchalar shaklini chizib, matnni oq qalamda qora qog‘ozga yozib, piksellar ko‘rinishida, 140 dona o‘yin kartalariga domino tarzida yiqitish kabi uslublarda noan’anaviy portretlar yaratgan. Qahramonimiz suhbat chog‘ida bolaligida dadasi bilan birgalikda “Noyob qobiliyatli odamlar” (“Удивительные люди”) ko‘rsatuvini tomosha qilgani va unga bir kun kelib o‘zi ham shu ko‘rsatuvda ishtirok etishga va’da bergani, qobiliyatini butun dunyoga namoyon qilish eng katta orzularidan biri bo‘lganini aytadi. “Tomoshabinlarni lol qoldirish maqsadida bir paytning o‘zida ikki qo‘lda uchta portret ishladim, – deydi u. – So‘ngra bir qo‘limda uchta portret, keyin yanada murakkabroq yumush – qo‘l va ikki oyoqlarim yordamida bir paytning o‘zida to‘rtta portret chizdim. Aynan shu ishim ko‘plab odamlarni hayron qoldirdi”.

Iste’dodli musavvir 1998-yilda Nurota tumanidagi Yangibino qishlog‘ida tavallud topgan. Shohruxning rasm chizishga bo‘lgan qiziqishi hali yozishni ham bilmagan paytlaridan boshlangan. Besh yoshida shifokor rasmini oddiy daftar varag‘iga qizil ruchka bilan chizganida otasi undagi iste’dod uchqunlarini payqab, qishlog‘idagi tasviriy san’at muallimiga o‘qishga beradi. Yetti yoshga to‘lganida esa Nurota tumanidagi ixtisoslashtirilgan san’at maktabida rassomlik sirlarini o‘rganishni boshlaydi. 2023-yilda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tasviriy san’at fakultetini “Mahobatli rangtasvir” yo‘nalishi bo‘yicha tamomladi. Shundan buyon respublika “Hunarmand” uyushmasi a’zosi sifatida devorga bezak berish yo‘nalishida faoliyat olib bormoqda. Qolaversa, o‘zi tashkil qilgan tasviriy san’at yo‘nalishidagi o‘quv markazida yoshlarga ustozlik qilmoqda.

Suhbatdoshimiz qator ko‘rik-tanlovlarda ishtirok etib, nufuzli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan. 2022-yilda Toshkent shahrida o‘tkazilgan Strit-art yo‘nalishidagi “Toshkent Art Fest” festivalida “Hayot bebahodir” nomli asari bilan qatnashib, birinchi o‘rinni qo‘lga kiritgan. Xalqaro “Tinchlik uchun! – 2022” ijodiy tanlovida ham g‘olib bo‘lgan. Qahramonimiz “Eng iste’dodli rassom – 2022” nominatsiyasining ham sovrindori.

Shijoat va g‘ayratga to‘la, tinib-tinchimas, yangilikka o‘ch Shohrux bilan suhbatlashib amin bo‘ldikki, rassomning muvaffaqiyati siri faqatgina san’at sirlarini puxta egallashida emas, balki doimiy o‘qib-o‘rganish, izlanishdan charchamasligida ekan. U bugunga qadar bir qator fan olimpiadalari va kitobxonlik tanlovlarida muvaffaqiyatli qatnashgan. Intellektual o‘yinlar uning jonu dili. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Rubik kubigini professional darajada yig‘ish bilan shug‘ullanib, Butunjahon speyedcuberlar assosiatsiyasi a’zoligiga qabul qilingan. Qolaversa, intellektual o‘yinlarida ham o‘z jamoasi bilan muntazam ishtirok etmoqda. 2022-yilda “Raqamli savodxonlik” onlayn tanlovining bosh sovrini bilan taqdirlangan.

Shohruxdan kelajakdagi rejalari va maqsadlari haqida so‘raganimizda “O‘zbekistonni dunyoga tanitish uchun bor iste’dodim, mehnatim va kuchimni sarflayman”, deya javob qildi. Shu gapidan so‘ng unga mehrimiz va hurmatimiz yanada oshdi.

Shohrux kabi noyob iste’dod sohiblarini qo‘llab-quvvatlab, ularga zarur sharoitlarni yaratib berishimiz lozim. Axir, Ginnesning rekordlar kitobidan faqat pishirgan osh-ovqatlarimiz bilan emas, go‘zallikni tarannum etuvchi san’at asarlarimiz, bashariyatni lol qoldiruvchi iste’dodlarimiz bilan ham o‘rin olsak, qanday yaxshi!

Muyassar IBROHIMOVA

BEDOR O‘Y

HAFSALANI PIR QILMANG, PIR TUTING!

Lug‘atlarda yozilishicha, “hafsala” inson irodasining mehnat yoki harakatga moyilligini, biron-bir ishni chin dildan ado etish istagini ifoda etadi. Kundalik hayotimizda “shu ishga hafsalasizlik qildim” yoki “bu yumushni astoydil, hafsala bilan bajardim”, “agar hafsala qilib, jon-dildan kirishmasang, bu hayotda biror natijaga erisholmaysan” kabi gaplarni ko‘p eshitamiz.



Umr bo‘yi halol mehnat ortidan kun kechirgan rahmatli padari buzrukvorimning: “Qunt, hafsala bilan qilingan ishda baraka bo‘ladi, bolam”, degan so‘zlari hayotda meni doimo tartibli, intizomli bo‘lishga undab kelgan.

Buyuk matematik bobomiz Muhammad al-Xorazmiyning ajoyib tenglamasiga e’tibor bering: “Agar inson yaxshi xulq sohibi bo‘lsa, bamisoli u – birga teng. Agar inson husn sohibi bo‘lsa, birning yoniga nolni qo‘shing – 10 bo‘ladi. Agar inson boy bo‘lsa, yana bitta nolni qo‘shamiz – 100 bo‘ladi. Agar inson nasl-nasabli bo‘lsa, yana bitta nolni qo‘shing – 1000 bo‘ladi. Bordi-yu, bu sanoqdan bir raqami, ya’ni xulq g‘oyib bo‘lsa, insonning qiymati yo‘qolib, faqat nollarning o‘zi qoladi”. Qarang, qanday oddiy, shu bilan birga teran falsafa. Demak, yaxshi xulq insonning insoniyligini belgilaydigan eng muhim mezondir. Axir, muborak hadislarimizda ham: “Sizlar farzandlaringizga meros qilib qoldiradigan eng katta boylik – bu yaxshi axloq-odobdir”, deb ta’kidlangani bejiz emas.

Bizning bolaligimiz Ikkinchi jahon urushi yillaridan keyingi og‘ir davrga to‘g‘ri kelgan. Qishloqlarda uylarning tomiga qamish va xas-xashak yoyilib, ustiga tuproq to‘shalib, somonli loy bilan suvalardi. Kiyadigan kiyimlarimiz kamtarona, yeydigan ovqatimiz hozirgiday xilma-xil emasdi. Hamma joyda sovetning majburiy tenglashtirish, ya’ni qashshoqlashtirish siyosati hukmron bo‘lsa-da, odamlarda o‘zbekona mehr-oqibat, boriga qanoat qilib, shukrona bilan yashash tuyg‘usi kuchli edi. Har qanday sharoitda ham bemor yoki keksa kishilarning holidan, ikki-uch qishloq oshib bo‘lsa-da, xabar olish odamgarchilikning belgisi sanalardi. “Hafsala qilib, bir ko‘rib ketay dedik-da”, deya uyimizga yaxshi niyat bilan eshik qoqib keladigan insonlardan ibrat olib yashardik. “Falonchinikiga hasharga!” degan da’vatni eshitsak, qayerda bo‘lishimizdan qat’i nazar, yugurib boraverardik.

Bunday “o‘zbekchilik” deb atalgan hayot tarzi or-nomus va g‘urur masalasiga aylanib ketgan, shunday xayrli ishlarda ishtirok etmaslikning o‘zi uyatli, eldan ajralib qolishni bildirar edi. Lekin, afsuski, bugungi shiddatli davrda turli tashvish va muammolar bilan band bo‘lib, hadeganda yordamga muhtoj, mehrga zor, nochor odamlarning ko‘nglini so‘rashga qunt va hafsala qilavermaymiz.

Biz uchun necha zamonlardan buyon dolzarb mavzu bo‘lib kelayotgan to‘y va ma’rakalarni kamxarj qilib o‘tkazish masalasini olaylik. O‘tgan asr boshlarida jadid bobolarimiz bu haqda qancha kuyunib gapirgan edilar. Yana bir bor taassuflar bo‘lsinki, ulug‘ ma’rifatparvarlarimizning ana shu ogohlantirishlari, oradan shuncha vaqt o‘tsa-da, hanuzgacha qalbimizga yetib bormayapti, befarq qarayapmiz. Kimlarnidir qoyil qoldirish ilinjida ota-bobolarimizning yetti uxlab tushiga ham kirmagan marosimlarni o‘ylab topmoqdamiz. To‘ylarimizdagi na milliy urf-odatlarimiz, na o‘zbekona uyat-andisha, na ma’naviyat va madaniyat talablariga to‘g‘ri kelmaydigan “yangilik”larni aytmaysizmi?

Taniqli adabiyotshunos olim G‘aybulloh as-Salomning “Tug‘ilgan kuning esdan chiqsa chiqsin-u, biroq nima uchun tug‘ilganing esdan chiqmasin”, degan gapini hayotimizning oltin qoidasiga aylantirishimiz shart. Toki, har bir inson odamiylik matlabi nima ekanini unutmasin.

Xalqimizga Vatanimizga mehr va sadoqat bilan chin dildan xizmat qilish, har qanday sharoitda ham o‘z ajdodlariga munosib inson bo‘lish hayotimizning ma’no-mazmuniga aylansa, o‘zingiz ayting, dunyoda bundan ham ortiq saodat bormi o‘zi?!

Abdushukur hoji MUHAMMADQULOV,
mehnat faxriysi,
“Do‘stlik” ordeni sohibi,
Samarqand viloyati,
Payariq tumani

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Pirnafasova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 6208
Lotin yozuvidagi adadi – 11958
Media kuzatuvchilar – 9700
Buyurtma: G – 440.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 18:05
Sotuvda narxi erkin.